

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

4-kurs “A” guruhi talabasi

XAYITOV DAVRONBEK

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA
BOLQON DAVLATLARI VA BOLQON
URUSHLARI

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi B. Abdullayev

Andijon – 2016 yil

R E J A

Kirish

**I.bob. XIX asrning oxirida Bolqon uchun manfaatdor davlatlar
amalga oshirgan ishlar**

**II.bob. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Bolqon davlatlarining
Turkiya tomonidan ezilishi**

III.bob. Rossiyaning Bolqon yarim orolida olib borgan siyosati.

**IV.bob. 1908-1909 yillardagi Bosniya inqirozi va Bolqon
urushlari.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Betakror Ona-Vatanimiz istiqloлга erishishi natijasida jamiyatimizning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, Vatanimiz va jahon tarihiga vatanparvarlik nuqtai nazaridan qiziqish ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarihini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹ - deb ta'kidlab o'tadi. Sobiq sho'ro saltanati yillarida eng qadimgi davrdan to XX asr oxiriga qadar bo'lgan tariximiz sohtalashtirildi. Endilikda, ya'ni istiqloл yillarida tarixshunosligimizda bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz va jahon tarixiga e'tibor borgan sari rivojlanib bormoqda.

Hozirda jahon mamlakatlari tarixinining har bir atributiga e'tibor qaratish, uni o'rganish, tahlil qilish, xatolarni qo'llamaslik, ijobiy jihatlarni vatanimiz taraqqiyotida qo'llash muhim hisoblanadi.

O'zlikni anglash - eng avvalo o'tmishni o'rganishda, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan xar bir inson o'z ajdodlari kim bo'lganligi, ota-bobolari nima bilan shug'ullanganligi va qanday hayot kechirganligini bilib olishga intiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, „.....yaqin vaqtlargacha ijtimoiy fanlar aslida siyosat manfaatlariga hizmat qilar edi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashga, bu tadqiqotlarning doirasi, harakteri va yo'nalishlariga, jamiyatshunos olimlarning dunyoqarashi va metodologiya yo'l-yo'riqlariga o'z tamg'asini bosdi.“²

Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat munosabatlarda o'ziga xos o'ringa ega. U ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlar, xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin.

Xalqaro munosabatlarda jahon hamjamiyatidagi davlatlar o'rtasidagi siyosat olib borishda o'zaro manfaatlarini hisobga olish zarurligini anglab etish va uni hisobga olgan holda yondashish zarur. Bu xalqaro munosabatlarda siyosat tamoyilining ayrim davlatlar darajasidan chiqqanligini, umuminsoniy qadriyatlar xalqaro munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan: siyosat tarixi, uning o'ziga xos oqibatlar turli davlatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilot o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularning manfaatlariga mos tushadigan tamoyillarga asoslanish zarurligini taqazo etadi.

Ikkinchidan: bugungi kungacha jahon sivilizatsiyasiga katta xavf solib turgan qurollar (yadro quroli, kimyoviy qurollar) to'planib qolganligini va uni sivilizatsiyasiga bo'lgan harakatining mavjudligini va uning oldini olish bilan bog'liq.

Uchinchidan: xalqaro munosabatlarda ayrim davlat rahbarlari, siyosiy prtiyalar va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, yangi qurollarning sivilizatsiyaga bo'lgan intilishlari, davlatlarga nisbatan munosabatda “zo'ravonlik”, “kuchga harakatlari” va undan manfaatdor kuchlarning mavjudligi, xalqaro siyosatda o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida, ixtiloflar paydo bo'lganda uni siyosiy yo'llar bilan hal etish ma'rifiy yo'l ekanligini tan olish zaruriyati bilan bog'liq.

Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishlab chiqilgan normalarga amal qilish, yangi jahon urushini oldini olish va uning oqibatlarini hamma uchun bir xilda ekanligini, yer yuzida hayotni

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. - Б.71.

² Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011. - Б.88.

saqlab qolish, insoniyat taqdiri bilan bog'liqmuammo ekanligini xalqaro siyosatda hisobga olgan holda munosabatda bo'lish zarurligi davlatlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar o'rtasida xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro kuchlar nisbatan muvofiqlashtirgan holda siyosat yurgizishni taqozo etadi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni “ kuchga tayangan holda” hal etish insoniyat boshiga og'ir musibatlarni keltirib chiqarish aniq. Bunga insoniyat tarixida bo'lib o'tgan qonli urushlar misol bo'lib, buni har bir siyosatdon esdan chiqarmasligi zarur.

Tarix shundan guvohlik beradiki, yer yuzida keyingi 5,5 ming yilning atigi 292 yilgina tinch va osoyishta o'tgan. Bu urushlar birgina Yevropada XVII asrda 5 mlndan ko'proq, XIX asrda 6 mln, XX asrda 70 mingdan ko'proq kishining hayotiga zomin bo'lgan.

XXI asr boshlanishida jahon hamjamiyatida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlarning harakteri va mazmunida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlar tamoyillari qayta qurib chiqilishini yangicha idrok etilishini taqoza etmoqda. Jahon sivilizatsiyasining ertangi taqdiri, xalqaro munosabatlar muammosining hal etilishi, insonparvarlik muammosini yangicha tushunish va talqin etish uni anglash amalda tadbqiq etish xalqaro siyosatning asosiy buguniga aylandi.

Xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda munosabatda bo'lish kelajakka ishonch demakdir. Bu yer yuzida tinchlikni saqlab qolish uchun xalqaro munosabatlari o'zaro ishonchga vat eng manfaatlar asosida qushilishiga olib keladi.

XIX-XX asrlar xalqaro munosabatlarda sodir bo'lgan muhim o'zgarishlar bilan harakterlanadi. Bugungi xalqaro munosabatlar nazariyasida “tashqi siyosat” tushunchasi bilan birga xalqaro siyosat tushunchasi ham keng ishlatila boshlandi.

Tashqi siyosat - bu davlatlarning mamlakat tashqarisida davlatlararo munosabatlarda o'zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat.

Xalqaro siyosat - bu xalqaro munosabatlarda ishtirok etadigan turli davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro meyorlar, normalar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarni saqlab turishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro siyosat alohida shaxslar yoki davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarnigina emas, balki muayyan guruh yoki davlat manfaatlarining amalga oshirishi bo'yicha aloqalarni, faoliyatlari sohalarini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi va davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi.

Har bir davlatning rivojlanishi tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikning ta'siri toboro oshib bormoqda. Bu o'z navbatida, bugungi umumbashariy muammolar bilan bog'liq. Chunonchi, tinchlik uchun kurash, urush xavfini oldini olish, ekologiya, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar jahon jamoatchiligining dunyo oldidagi mas'uliyatini oshirmoqda. Bu muammolar har bir davlatning ichki siyosati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ularni bir-birini tushungan holda siyosat olib borishga undamoqda va bunday siyosat tarafdorlari ko'paymoqda.

Xalqaro siyosatda qo'llangan xalqaro normalar, tamoyillarga amal qilish, o'zaro munosabatlarda “bir tomonlama” manfaatdorlikni nazarda tutgan holda siyosat olib borish yoki munosabatda bo'lishi faqat davlatlarning rivojiga salbiy ta'sir etib qolmasdan , umuman dunyoda siyosiy barqarorlikni buzulishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro siyosatda bulayotgan o'zgarishlarni atroflicha o'rganish, siyosiy jarayonlarga va uning rivoji yo'nalishlariga xolisona yondoshish va baho berishni taqazo etadi.

XIX asr o'rtalariga kelib xalqaro munosabatlar va turli zidiyatlarning jahon gegemon davlatlarining nigohi Bolqon yarim oroli, Usmonli turk imperiyasiga qaratildi. Demak endi Usmonli turk imperiyasini zaiflashtirish uni mustamlakalariga ko'z olaytirish bu davr xalqaro munosabatlarining o'ziga hos xususiyaiga aylandi. Bu masalada birinchi navbatda Rossiya imperiyasi va Avstriya–Vengriya manfaatlari birinchi navbatda to'qnash keldi. Rossiya imperiyasini tashqi siyosatda ancha agressor harakat qilishga undadi, to'g'ri, Yevropa mamlakatlari ham jim qarab turishmadi jumladan, Buyuk Britaniya va Fransiya o'z navbatida Germaniya ham bunga turli qarshiliklar ko'rsatib keldi chunki bu hududlarda Rossiyaning hukmron bo'lishiga toqat qila olmas edi. Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. Buyuk davlatlar Turkiya ichki ishlariga aralashishni tobora kuchaytirdilar. Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustaxkamlanib olishga urinishlari 1853 yilda Sharq urushini keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga Qrim urushi nomi bilan kirgan. Rossiya podshosi Nikolay 1 sultondan Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining xomiyi ekanligini tan olishini talab etdi. Buyuk Britaniya va Fransiya sultonni bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda Rossiya - Turkiya urushi boshlandi. Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik koalitsiyasi g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiya qaramligini yanada kuchaytirdi. Urush natijasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining "xomiyligi"ni ta'minladi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulklar sotib olishga ruxsat etdi. Chet davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo'l ochildi. G'arbiy Yevropada sanoat inqilobi tugallanayotgan bir davrda Turkiyada xamon o'rta asr feodal tartiblari xukmronligicha qolaverdi.

G'arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan tutgan siyosatlari bu tartiblarni yanada mustaxkamladi. 19 asrning 60-yillariga kelib mustamlakachi buyuk davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib oldilar.

Ayni paytda Turkiya moliyaviy qaramlik botqog'iga ham bota boshladi. 70- yillarda uning chet davlatlardan qarzi 2,4 mlrd frankni tashkil etdi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 qit'asida ulkan mustamlakalarga ega bo'lib olgan Turkiya endilikda Yevropaning buyuk davlatlari yarim mustamlakasiga aylandi.

Voqealar bunday rivoji Rossiyani to'htatib qolmadi, harqanday yo'l bilan ham kurashdan qaytmasdan o'z manfaatlaridan voz kechmadi. Rossiya agressiv siyosatining asosiy yo'nalishlari Bolqon, Uzoq Sharq, Turkiya hamda Qora dengiz bilan O'rta dengizni bog'lovchi Dardanell va Bosfor bo'g'ozlari hamda O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish edi. Tez orada Bolqon inqirozi yuz berdi. 1875-yilning yozida Gersegovina va Bosniyada Turkiya mustamlakachiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Ular milliy mustaqillik talab qildilar. Bolgariyada ham shunday qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Bolqon inqirozi buyuk davlatlarning manfaatini yana bir bor to'qnashtirdi.

1876- yil 26- dekabrda Konstantinopolda Bolqon masalasida xalqaro konferensiya chaqirildi. 1877- yilning 28- fevralida Serb-Turk tinchlik shartnomasi imzolandi. Bosniya, Gersegovina va Bolgariyaga muxtoriyat berish talablari esa qog'ozda qoldi.

Turkiya Serbiya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan bo'lsa-da, o'z armiyasini demobilizatsiya qilmadi. Bu Rossiya uchun ayni muddao bo'ldi. Rossiya 24- aprel kuni Turkiyaga urush e'lon qildi. Serbiya va Chernogoriya ham urush harakatlarida qatnashdi. Rossiya armiyasi Turkiya armiyasiga katta talafot yetkazdi. 1877- yil oxirida Plevna yonida

Usmon poshsho 43 ming qo'shini bilan taslim bo'ldi. 1878- yil yanvarda Skobelev armiyasi Adrianopolni ishg'ol qildi. Rossiyaning muvaffaqiyatlari Angliyani tashvishga solib qo'ydi. 1878- yilning 3- fevralida Angliya o'z harbiy kemalarini Marmar dengiziga kiritdi. Rossiya armiyasi Konstantinopol shahriga bostirib kirs, Rossiya bilan diplomatik aloqasini uzishini ma'lum qildi

1878- yilning 19- fevralida San-Stefanoda Rossiya-Turkiya shartnomasi imzolandi. Shartnoma Bolqon yarim orolining siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunonchi, Bolgariya Turkiyaga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylandi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya to'la mustaqil davlatlar deb tan olindi. Turkiyaning Rossiyaga 1 mlrd. 410 mln. rubl tovon to'lashi belgilandi.

Biroq San-Stefano shartnomasini «jahon hokimi» - Angliya tan olmadi. U bu shartnomani qayta ko'rib chiqishni talab etdi. Germaniya va Avstriya-Vengriya ham bu talabga qo'shildilar. Yakkalanib qolgan Rossiya yangi xalqaro kongress - Berlin kongressi chaqirilishiga noiloj rozi bo'ldi.

Kongress 1878- yilning 13- iyunida ochildi. Unda Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Italiya va Turkiya delegatsiyalari qatnashdi (Bolqon davlatlari Berlinga taklif etilgan bo'lsalar-da, ularga kongress qatnashchisi maqomi berilmagan).

13- iyul kuni kongress o'z ishini yakunladi va «Berlin traktati» deb nomlangan hujjat imzolandi. Bu hujjat Rossiyaning San-Stefano shartnomasi natijasida qo'lga kiritgan katta muvaffaqiyatlarining ahamiyatini kamaytirib yubordi. Chunonchi, Angliya harbiy kemalari Qora dengizga kirish huquqiga ega bo'ldi, Kipr oroli Angliyaga, Bosniya va Gersegovina Avstriya-Vengriyaga in'om etildi. Bolgariya ikkiga bo'lib yuborildi. Ayni paytda, Turkiya to'lashi lozim bo'lgan tovonning katta qismi evaziga Rossiyaga Kavkazning Botumi, Kars va Ardagan hududlari berildi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyaning davlat mustaqilligi tan olindi.

Berlin kongressi Bolqon va Usmonli imperiyasini amalda taqdirini belgilash, kelajak uchun belgilangan reja bo'lib hizmat qildi. bu tez orada o'z aks sadosini namoyish etdi. Jumladan Bolqonda kelajakda «bo'mba solingan bo'chkaga» aylandi, rejalashtirilgan bahonaviy urushlar uchun sabab bo'ldi, Turkiya esa taqdirini o'zgalarga tuhfa etishda davom etishga majbur bo'lib qoldi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan asr boshida yevropada hukmronlik uchun kurash ketgan bo'lsa asta sekin uning miqyosi kengayib borib Afrika. Osiyo va dunyoning mustamlaka larga ega bo'lish jarayonibilan yer yuzini qamrab oldi. Bu vaziyatni biz ko'rib chiqayotgan XIX asrning so'ngi choragida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi, keyingi davrda esa jahonda yakka hokimlik uchun ochiqdan ochiq davolar qilishga intilishdi.

Bolqon urushlari - Bolqon yarim orolida 1912-1913 yillarda bo'lib o'tgan ikki urush. Birinchi Bolqon urushi - 1912 yil 9 oktabrdan 1913 yil 30 maygacha bolgan edi. Bolqon ittifoqi tarkibidagi Bolgariya, Serbiya, Gretsiya, Chernogoriya bilan Turkiya o'rtasidagi urush. London sulh shartnomasi (1913 yil 13 may) ga ko'ra, mag'lub Turkiya Istanbul va Sharqiy Frakiyaning bir qismidan boshqa Bolqondagi barcha mulklaridan mahrum bo'lgan.

Ikkinchi Bolqon urushi (1913 yil 29 iyun — 10 avgust) — Bolgariyaning Serbiya, Chernogoriya, Gretsiya va ularga qo'shilgan Ruminiya va Turkiyaga qarshi urushi. Urush Bolgariyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Buharest sulh shartnomasiga (1913 yil avgust) ko'ra, Bolgariya Ruminiyaga Janubiy Dobruja, Gretsiyaga Makedoniyaning janubiy qismini va G'arbiy Frakiyaning bir qismini, Serbiyaga Makedoniyaning shimoliy qismining deyarli hammasini berishga, Turkiyaga Adrianopol (Adirna) ni qaytarishga majbur bo'ldi. Bolqon urushlari xalqaro

ziddiyatlarning keskinlashuviga, 1914—18 y.lardagi 1-jahon urushining tezlashuviga yo'l ochib berdi.

Bolqon urushi (1912-1913) natijasida Kosovo, Makedoniyaning bir qismi va Sanjoqning kattagina qismi Serbiya hududiga qo'shildi. Birinchi jahon urushida Serbiya Antanta tomonida turib urushga kirdi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ana shu janglarda mamlakat aholisining uchdan biri qirilib ketgan. Urushdan so'ng Serbiya o'zagida serblar, xorvatlar va slovenlarning Qirolligi tashkil etildi. Bu davlat 1929 yildan Yugoslaviya Qirolligi nomini oldi.

1912 yilda Birinchi Bolqon urushi Bolgariya bilan Serbiya chor Rossiyasining, shuningdek Antantaga kirgan boshqa davlatlarning vositachiligi bi-lan o'zaro ittifoq bo'lish haqida shartpoma tuzdilar, holbu-ki bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar shu davrgacha ko'pincha dushmanlik ruhida bo'lib kelgan edi. Ko'p o'tmay Serbiya bilan Bolgariyaga Gretsiya bilan Chernogoriya qo'shilib, Bolqon ittifoqini tashkil qildilar. Bularning hammasiki Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash birlashtirgan edi, chunki hali ko'pgina slavyanlar va greklar bu imperiya zulmi ostida yashardi.

Bolqonda milliy masalani hal qilish uchun olib borilgan kurash Yevropa davlatlarining aralashuvi bilan yanada murakkablashgan edi. Usmoniylar imperiyasini o'z mustamlakasiga aylantirish umidida bo'lgan Germaniya va uning ittifoqchisi Avstriya-Vengriya bolqon xalqlarining ozod bo'lishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ldilar. Rossiya Bolqon davlatlarini qo'llab-quvvatladi, lekin o'zining imperialistik manfaatlari uchun Avstriya-Vengriyaga va Turkiyaga qarshi kurashda bu davlatlardan foydalanishni ko'zda tutdi. Bolqon ittifoqi, agar Yevropa urushi boshlanib ketgudek bo'lsa, Antantaga bir daraja ko'maklashishi lozim edi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu, ya'ni "XIX asr ohiri – XX asr boshlarida Bolqon davlatlari va Bolqon urushlari" mavzusiga ko'plab tarixchilar, siyosatchilar tomonidan murojaat qilinganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan, tarixchi-olimlarning aynan shu davr tarixi bilan shug'ullanganligini men internet tarmog'idagi mavzuga doir saytlardan bilib oldim va bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashdan o'sha saytlardan keng foydalanishga harakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Xar bir inson biror bir ishga kirishishdan avval albatta o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi. Jumladan, mening siyosatshunoslik, xususan g'arb davlatlari siyosatshunosligiga qiziqishim yuqori ekanligi sababli dunyoni larzaga keltirgan va ko'plab talofatlarga sabab bo'lgan urushlarni yuzaga kelishiga sharoit yaratib bergan siyosiy o'yinlar va davlatlarning o'z manfaatlari yo'lida olib borgan siyosatlarini o'rganib tahlil qilishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Bolqonda urush harakatlarini vujudga kelishining asl mohiyatini ochib berish va o'rganuvchi va qiziquvchilarga mavzuni to'liq tushunishlariga ko'maklashish ham olib borayotgan tadqiqotimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. O'rganayotgan davrdagi davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotini va mazkur davr diplomatiyasini tahlil qilish ham bitiruv malakaviy ishimizning vazifalaridan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining xronologiyasi. Bitiruv malakaviy ishining xronologik davri XIX asr ohiri – XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Lekin mavzuning ilmiy ahamiyati va uzviyligini hisobga olgan holda birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrni tahlil etishni lozim topdik.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning nazariy asosini Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov asarlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishimiz XIX asrning ohiridan birinchi jahon urushi boshlanishigacha bo'lgan davrlarni qamrab olganligi

sababli asosiy e'tibor o'sha davrga oid nashrdan chiqqan maqolalar, ilmiy nashrlar, asarlar, ilmiy tadqiqot materiallari, mazkur davr to'g'risidagi materiallarga qaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu ilmiy tadqiqot uchun yangi hisoblanadi. Mavzuimizga bog'liq mavzularda bir qator ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilganligi bizga ma'lum. Aynan biz o'rganayotgan " XIX asr ohiri – XX asr boshlarida Bolqon davlatlari va Bolqon urushlari" mavzusiga alohida to'htalmagan.Ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida, biz ko'proq manbalarga, xrestomatik asarlarga va internet saytlaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda voqea-hodisalarni qiyosiy tahlil asosida uzviylik, izchillik ,holislik prinsiplari asosida yoritib, tahlil qilishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundaki, jahon tarixidagi bu qisqa davr tarixi, undagi ro'y bergan ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, turli xil nazariyalarning vujudga kelishini, siyosiy jarayonlar, ularning sabab va mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganish orqali yangi-yangi ma'lumotlar vujudga keladi.Bitiruv malakaviy ishining natijasiga ko'ra, bayon etilgan faktik materiallar va ilmiy xulosalardan Tarix fakulteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan "Jahon tarixi (Yangi tarix)", "Xalqaro munosabatlar tarixi", "Siyosatshunoslik" va boshqa fanlar ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida, talabalarining mustaqil ish, kurs ishlarini tayyorlashda, to'garak mashg'ulotlarini olib borishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi tuzilish jihatidan kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy hajmi ilovalardan tashqari elektron variantda 77 betni tashkil qiladi.

1. XIX ASRNING OXIRIDA BOLQON UCHUN MANFAATDOR DAVLATLAR AMALGA OSHIRGAN ISHLAR

Rus tashqi siyosatining Evropadagi bosh vazifasi Rossiya uchun Bolqon masalasini maqbul hal etish imkoniyatidan mahrum etibgina qolmay, balki mamlakat janubiy qismini (Kavkaz, Qrim, Ukraina) ham katta havf ostida qoldirgan Parij sulhining og'ir oqibatlarini bartaraf qilishdan iborat edi. Bu vazifani Qrim mag'lubiyatidan keyii endi harbiy yo'l bilan hal etish mumkin emas edi. Bolqon yarim orolida Rossiyaning obro'sini faqat diplomatik tirishqoqlik bilan tiklash mumkin edi, holos. Bu niyatni amalga oshirish uchun Evropadagi yirik davlatlar o'rtasidagi nizolardan foydalangan holda ittifoqchn topish zarur edi. Rus diplomatiyasining bunday qiyin vazifasini hal etishga o'sha davrda yuzaga kelgan g'arbiy Evropadagi tashqi siyosiy vaziyatni yaxshi bilgan hamda etarlicha keng siyosiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs - yangi tashqi ishlar ministri A. M. Gorchakov bel bog'ladi.

Dastlab rus diplomatiyasi Fransiya timsolida Evropadagi kuchli ittifoqchisini topishga urindi. Parij kongressi paytidayoq Rossiyaning Qrim urushidagi asosiy dushmanlari - Fransiya va Angliyaning tashqi siyosiy niyatlari bir-biriga u qadar mos tushmasligi oydinlashib qoldi va bu xol rus diplomatiyasiga Angliyaning uzoqni ko'zlovchi ko'pgina talablarini chetga surish imkoniyatini berdi. Qrim urushidan so'ng Evropadagi xalqaro axvol Rossiyaning Fransiya bilan yaqinlashishi uchun qulay bo'lib qoldi. Napoleon III ning yangi bosqinchilik siyosati Avstriyaning Italiyadagi mulklarini bosib olish maqsadida Avstriyaga qaratilgan edi. Rossiya bilan hamjihat aloqa Napoleon III ga bu rejalarni amalga oshirishni osonlashtirar edi. Chunki Qrim urushi vaqtida Avstriyaning Rossiyaga qarshi amalga oshirgan dushmanlik

siyosati, shuningdeq Avstriya o'z ta'sirini kuchaytirishga intilayotgan Bolqondagi vaziyat Rossiyaning dushmanlari safiga qo'shmay qolmas edi.

Fransiya bilan boshlangan yaqinlashishning alomati Aleksandr II ning toj kiyish marosimida podshoga favqulodda ehtirom ko'rsatgan va xatto rus bekasiga uylanib, Peterburglik gersoglar bilan qarindoshlik munosabatini o'rnatib olgan gersog de Morna boshchiligidagi katta fransuz delegatsiyasining kelishi bo'ldi. 1887 yil sentyabrda Shtutgartda ikkala imperatorning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda o'zaro bitim imzolandi va bu bitamga muvofiq Rossiya Fransiya Italiyada erkin harakat kilish xuquqini, Fransiya esa Rossiyaga Bolqondagi ishlarida ko'maklashishiga va'da berdi.

Rus diplomatiyasi Fransiya bilan yaqinlashishdan o'zini Bolqondagi ta'sirini kuchaytirish uchun foydalandi. Fransiya bilan hamkorlikda u Dunay knyazliklari Moldaviya va Valaxiyaning umumdavlat idorasi safidan joy olgan birlashishini tayyorlashga erishdi. Rossiya va Fransiya Serbiya hamda Chernogoriyani ularning Turkiyaga qarshi kurashida qo'llab-quvvatladi.

Savoya hamda Nitssananing Fransiya qo'shib olinishiga erishgach, Napoleon III Bolqon masalasida Rossiya bilan aloqasini uzadi. Napoleon III Angliya va Avstriya bilan birgalikda polyaklar foydasiga diplomatik demarsh qullagan. 1863 yilgi Polsha qo'zg'oloni davrida esa Rossiyaning Fransiya bilan munosabati oshkora yomonlashdi. Bismark boshchilik qilgan siyosatga ega bo'lgan Prussiya 1863 yildagi Polsha qo'zg'oloni vaqtida podshoh qo'shinlariga Prussiya territoriyasida polyak isyonchilarini ta'qib etishga erk berib, chor hukumatiga «olijanoblik» yordami ko'rsatdi. Germaniyani birlashtirish uchun kurash Prussiya va Avstriyani to'qnashtirgan bir paytda, rus diplomatiyasi Parij shartnomasini qaytadan ko'rib chiqish masalasini oldinga surib, Prussiyadan foydalanishni maqsad qilib qo'yadi. Rossiyaning diplomatik yordamida Prussiya Daniyaga (1864 yil) va Avstriyaga qarshi (1866 yil) olib borgan urushlarda g'alaba qozonadi, Buning evaziga Bismark Parij bitimida Rossiyani tang axvolga solib qo'ygan shartlarni qayta ko'rib chiqish uchun Prussiyaning e'tirozi yo'q ekanligiga Gorchakovni ishontiradi, 60- yillarning oxirlariga kelib Evropada Prussiyaning Fransiya bilan to'qnashuvi etilib qolgan edi. Bismark («temir va qon bilan») barpo qilishga intilayotgan german davlatlarining birlashishi Fransiya uchun noqulay edi. Birlashgan Germaniya Fransiyaning G'arbiy Evropadagi siyosiy gegemontligi uchun havfga aylanar edi. Napoleon III va Bismark urushga tayyorlanmokda edi. Napoleon III 1866 yilda Prussiyadan mag'lubiyatga uchragan Avstriyaning madadiga umid bog'ladi. Bismark Chor Rossiyasiga ishondi. Bismark Rossiyaga Bolqonda ko'mak berishga va'da berdi. O'z navbatida Aleksandr II Avstriya-Vengriyani Prussiyaga orqa tomondan hujum qilishdan saqlab turishga rozi buladi.

1870 yilda Prussiya hamda Fransiya o'rtasida urush boshlanadi. Avstriya Fransiya xayrixoh bo'lsada, biroq Rossiyadan qo'rqib betaraf bo'lib qoldi.

Bismark Rossiya uchun eng muxim masalada - Qora dengizda Rossiyaning harbiy flotga ega bo'lishini taqiqlovchi Parij bitimi shartlarining bekor qilinishida to'da ko'mak berajagi xaqidagi va'dasini yana qaytadan ta'kidladi.

Fransiyaning mag'lubiyati tufayli Evropada vujudga kelgan sharoitni hisobga olib hamda Bismarkning va'dasiga tayanib, 1870 yil oktyabrda Gorchakov Evropa davlatlariga sirkulyar maktub yubordi. Unda Parij bitimi boshqa davlatlar tomonidan buzilayotganligi sababli Rossiyaning bundan buyon o'z hukuqlarini cheklab qo'yuvchi bu bitim shartlarini tan olmasligi ko'rsatildi.

Rossiyaning Parij: bitimi shartlarini bajarishdan bir tomonlama bosh tortayotganligi Evropada, ayniqsa, Angliya va Avstriyada qattiq norozilik keltirib chiqardi. Konferensiya chaqirish masalasi qo'yildi. Bismark Angliya xukumatiga, garchi Rossiya talablarining bayon etish shaklini go'yo kuvvatlamasada, biroq o'z talablarida Rossiyaning haq ekanligini bildirdi. 1871 yil yanvarda Londonda yig'ilgan konferensiya Parij bitimining yuqorida ko'rsatilgan moddalarni bekor qilish xaqidagi Rossiyaning talablarini tasdiqlashga majbur bo'ldi. Shunday qilib, chorizm yirik diplomatik g'alabaga erishdi.

1870-1871 yillardagi fransuz-pruss urushidan keyin vujudga kelgan German impernyasi bilan Rossiya o'rtasida boshlangan yaqinlashish keyingi yillarda ham davom etdi. Bu yaqinlashish rus pomeschchiklarining iqtisodiy manfaatlari bilan ("Rossiyadan chiqariladigan bug'doyning tahminan $\frac{1}{3}$ qismi Germaniya tomonidan sotib olinar edi), shuningdek har ikki davlatning Evropadagi raqibi Angliya edi. Rossiyaning O'rta Osiyoda ham u bilan og'ir kurash olib borishiga tug'ri keldi. Shuningdek Avstriya-Vengriya ham Rossiyaning muqarrar dushmani edi. Rossiyaning Turkiyaga qarshi hujumkorona siyosatini har qanday yo'l bilan qo'llovchi birdan-bir diplomatik sherigi Germaniya kansleri Bismark edi. Biroq Rossiya bilan Turkiya o'rtasida harbiy to'qnashuv yuzaga kelgan taqdirda Rossiyaga biron-bir real yordam ko'rsatishdan Germaniya yiroq edi. Bismark Rossiyani Evropadagi ishlaridan chalg'itish, Evropadagi o'zining bosh raqibi Fransiyaning butunlay tor-mor qilish xaqidagi puxta o'ylangan rejasini barbod etish mumkin bo'lgan Evropadagi o'zining asosiy raqibidan qutilib, uni o'zining sharqdagi ittifoqchisiga aylantirishdan iborat bo'lgan o'z maqsadlarini ko'zladi.

Rus diplomatiyasi Turkiya bilan urush ketayotgan bir paytda Avstriya-Vengriyaning xarakat qilishidan Rossiyani havfsizlantirish uchun mavjud barcha tadbirlarni qurdi. 1876 yil yulida Reyxshtadtida ikki imperator - Aleksandr II va Frans Iosiflarning uchrashuvi bo'lib o'tdi va bu uchrashuvda Rossiya bilan Avstriya-Vengriyaning Bolqonda hamkorlikda harakat qilishiga kelishib olindi. Rus diplomatiyasi Bolqon slavyanlari evaziga ayrim yon berishlarga majbur bo'ldi. Avstriya-Vengriya Bosniya hamda Gersegovinaning bir qismini o'ziga qo'shib olish huqukini oldi. Rossiya Bolqon yarim orolida yirik slavyan davlatining vujudga kelishiga zid harakat qilish majburiyatini oldi.

Asosan dehdonlardan tashkil topgan, harbiy ishga shoshilinch o'rgatilgan serb armiyasi hali turklar o'zining yirik harbiy kuchlarini markazlashtirib ulgurmagan urushning dastlabki paytlarida bir qadar muvaffaqiyatlarga erishdi, biroq tez orada unga mudofaga o'tishga to'g'ri keldi. 1876 yil oktyabrida serb armiyasi katta mag'lubiyatga uchradi. Serbiyaning ahvoli mushkullashdi. Rossiya diplomatik munosabatlarini uzish bilan do'q qilib Turkiyani yarashishga ko'ndiradi va shu yo'l bilan Serbiyani turk qo'shinlarining bostirib kirishidan saqlab qoldi. Rus diplomatiyasining taziqi bilan Konstantinopolda Evropa davlatlarining konferensiyasi chaqirildi va unda Bosniya, Gersegovina hamda Bolgariyani avtonomlashtirish loyihasi qabul qilindi. Bu avtonomiyani esa Turkiya hukumati amalga oshirishi lozim edi. Angliyaning fitnasi bilan Turkiya umumdavlat konstitutsion reformasini o'tkazish bahonasi ostida konferensiyaning qarorini bajarishdan bosh tortdi. Chor hukumati tinch yo'l bilan Turkiyaning yon berishiga erishish uchun yana bir bor urinib ko'rdi. Biroq Angliya tomonidan ko'mak berilishiga ishongan Turkiya Rossiyaning taklifini qat'iy rad etdi va urush chiqarish uchun fitna qo'zg'ashda davom etdi. 1877 yil aprelida podshoh Turkiyaga urush e'lon qilish haqida manifest chiqardi.

Xarbiy xarakatlar Bolqon yarim oroli va Kavkazda avj oldi. Rus armiyasining asosiy kuchlari Ruminiyada, Buxarest yaqinida to'plandi. Ularning soni 250 ming kishidan ortiq edi. Rus armiyasi tarkibiga bolgar xalq lashkari ham qo'shildi. Dunaydagi turk armiyasi 200 ming

kishiga ham etmas edi. Kavkazda 70 mingga yaqin rus qo'shini harakat qilardi. Urushning borishida Bolqon harbiy harakat sahnasidagi harbiy operatsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

70- yillardagi reformalar Rus armiyasini Qrim urushi davrida ko'zga tashlangan ayrim kamchiliklardan xalos qildi; endi - u yaxshi qurollangan, umumxarbiy majburiyat asosida to'ldirilgan armiyaning ofitserlar sostavi ancha yaxshi tayyorlangan edi. Biroq armiyaning tashkil etilishi, uning ta'minoti, eng muhimi, g'arbiy operatsiyalarni boshqarish baribir qoniqarsiz darajada bo'lib chiqdi. Bularning barchasi asosida mustaxkam ildiz otgan o'tmish krepostnoy jamiyatning qoldiqlari. Xarakatdagi armiyaning bosh qo'mondoni qilib hech qanday jangovar tajribaga ega bo'lmagan, katta harbiy xarakatlarni boshqarishga mutlaqo iqtidorsiz bo'lgan podshoning akasi Nikolay tayinlanadi. Bosh shtab boshlig'i sifatida iste'dodsiz va o'z o'rniga ega bulmagan idoraboz-chinovnik general Nepokoychitskiy tanlab olinadi. Bir qancha harbiy Operatsiyalarni muvaffakiyatli amalga oshirgan iste'dodli generallar (Gurko, Dragomirov, Obruchev, Skobelev) ham bor edi, ammo ular bosh qo'mondonlikka ta'sir ko'rsata olmas edilar. Armiya ta'minotidagi suiiste'molchilik armiya mablag'ini o'g'irlash va olib-sotarliq shtablarda hamda front ortida faqat mansab va boylik to'plash ishtiyoqida yurgan bekorchilarning ko'pligi urush davri armiyasining eng karakterli belgilarini tashkil etardi.

Urushning Rossiya uchun muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlagan muhim sabab ilgari ham namoyon bo'lgan rus soldatining ajoyib matonati, janglardagi jasorati va har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishdagi favqulodda chidamliligi kabi jangovar xislatlari edi. Soldatlar slavyan og'alariga chet el zolimlariga qarshi olib borayotgan azaliy kurashlarida xaqiqatan ham yordam berishni istar edi. Rus armiyasining Bolgariya ichkarisiga chuqurroq kirib borishi davomida tobora ko'plab qo'shilayotgan bolgar ko'ngillilari bilan rus soldatlari o'rtasidagi jangovar hamkorlik bolgar xalqining Milliy ozodlik harakatidagi ommaviy ko'tarilish katta ahamiyat kasb etadi. Bolgarlar rus soldatlarini oziq-ovqat bilan ta'minladilar, ularga handaklar qazish, og'ir qurollarni olib kelishda ko'maklashdilar, yo'l boshlovchi bo'ldilar.

Bolgar dehqonlari feodal istibdoddan ozod bo'lib, turk po-meshchiklarining erlarini tortib olishar va o'zaro bo'lib olishar edi.

Rus armiyasining Dunay frontidagi jangovar harakatlari 1877 yil iyunida Sistovo yaqinida Dunayni muvaffakiyatli kechib o'tish bilan boshlandi. Turkklar rus qo'shinlarining siquvi ostida chekindilar. O'n miig kishilik general Gurko otryadi o'zining shiddatli xujumini rivojlantirib, Bolqon torlarini qo'lga kiritdi, cho'qqilardan oshib, tog'ning o'ng betiga tushdi va turklarning Adrianopolga chekinish yo'liga havf soldi. Biroq general Gurko qo'shinlari front orqasidan uzilib qolgan holda Sulaymon poshsho qo'mondonligidagi turk armiyasiga to'qnash kelganligi sababli TOF dovonlariga chekinishga majbur bo'ldi. Bu yerda Gurko otryadi rus armiyasining asosiy kuchlariga havf solgan turk qo'shinlarining oldinga qarab siljishini to'xtatishi lozim edi. Urushning eng qaxramonona lavhalaridan biri - ruslar tomonidan Shipka dovonini turk qo'shinlarining eng katta kuchlarni hujumidan himoya qilish boshlandi. Shipka himoyasi qishning qor va sovuqlarida, og'ir tog' urushlari sharoitida, serqoya cho'kqilarda bir necha oy mobaynida davom etdi. Shipka himoyasida bolgar ko'ngilli qo'shinlari ham ko'mak berdi. Bolgariyaning shimolidagi turk qal'alari (Shumla, Varna) qurshab olingan edi, g'arbiy yunalishda rus qo'shinlari Nikopol qal'asini ishg'ol qiladi.

Birinchi g'alabalardan so'ng rus armiyasining boshiga yirik muvaffaqiyatsizliklar tushdi. Usmon poshsho qo'mondonligidagi turklar bir necha yo'llar kesishadigan muhim strategik joy hisoblangan Plevnani egalladilar va shu erdan turib ular rus armiyasining o'ng qanotiga hamda o'zaro aloqa yo'llariga xavf tug'dira boshladilar. Rus qo'mondonligi Plevnaning

ahamiyatini xisobga olmay juda katta xatolikka yo‘l qo‘ydi. U o‘z rayonidagi turklarning xatti - harakatini ko‘rmay qoldi: natijada armiya og‘ir talafotni boshidan kechirdi va urushning keyingi borishida noqulay sharoit yuzaga keldi. Mutlaqo yetarli bo‘lmagan kuchlar vositasida Plevnani egallash uchun ruslarning birinchi urinishi turklar tomonidan osonlik bilan qaytarildi. Oradan o‘n kun o‘tgach (30 iyulda) endi o‘ttiz ming kishilik korpus bilan hujum yana qaytarildi. Biroq Plevnani yaxshi mustahkamlab olgan Usmon poshsho rus qo‘shinlariga katta talafot berish bilan siquvni qaytardi. Bu rus armiyasini hujumni to‘htatishga majbur etgan «ikkinchi Plevna» edi. Rossiyadan gvardiyachi qismlar chaqiriladi, jangga ruslar bilan birga rumin qushinlari ham kirdi. «Uchinchi Plevna» - Plevna istehkomini egallash juda katta kuchlar bilan 11 sentyabrda boshlandi. Bir necha kun davomida qonli janglar bordi va unda ruslar 15 mingga yaqin qurbon berdilar. Plevna qo‘lga kiritilmaydi. Rus armiyasi 1877 yil kompaniyasida eng katta muvaffaqitsizlikka uchradi. Plevnadagi muvaffaqiyatsizliklarning aybdori podshoning iste’dodsiz akasi boshchiligidagi qo‘mondonlik edi.

Plevna qamali boshlanadi va unga rahbarlik qilish 1854-1855 yillardagi Sevastopol mudofaa istehkomlarini tashkil etish bilan tanilgan Totlebenga topshiriladi. Dekabrning boshlarida oziq-ovqat zapaslarini tugatgan Usmon poshsho qurshovni mardonavor yorib chiqishga urinib ko‘rdi. Bu harakat muvaffaqiyatli chiqmadi - Usmon poshsho taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi.

Plevnaning qulashi bilan urushning oxirgi bosqichi boshlandi. Katta talafotlar va mamlakatdagi og‘ir moliyaviy sharoit chor hukumatidan urushni tezroq yakunlashni talab etardi. Qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni mustahkamlash va Plevnaning qulashidan so‘nggi dushmanning sarosimaligidan foydalanish zarur edi. Bu paytga kelib serblar ham kuch to‘pladilar va turklarga qarshi muvaffaqiyatli hujum boshladilar. Turkiya qo‘mondonligi ruslarning xujumiga xaddan tashqari og‘ir sharoitlarni tug‘dirgan holda, sovuq Bolqon dovonlarida ruslarni to‘htatib qolishga umid bog‘lardi. Bolqondan oshib o‘tish uchun rus armiyasi uch otryadga bo‘lingan edi. Yigirma besh gradusli sovuqda dara va jarliklar o‘sha muzlik hamda qalin qorliklardan general Gurko otryadi o‘zining qahramonona oshib o‘tishini boshladi. Og‘ir to‘plarni soldatlar qo‘llarida ko‘tarib o‘tishlariga to‘g‘ri kelardi. Bolqondan oshib o‘tgan Gurko Bolgariyaning poytaxti Sofiya shahrini ozod qildi.

General Radetskiy otryadi Shipka dovonidan o‘ngga qarab siljidi. Shipka oldida joylashgan turk qo‘shinlari o‘rab olindi va bir oz qarshilikdan so‘ng ular taslim bo‘lishdi. Turklar Filippopol ostonalarida rus qo‘shinlarini to‘htatib qolishga ohirgi marta muvaffaqiyatsiz urinib ko‘rdilar. Mana shundan uch kundan keyin Andrianopol shahri egallab olindi. Bir paytning o‘zida serblar va chernogorliklar muvaffaqiyatli hujumlarini kuchaytirdilar. Kavkaz frontida turklar mag‘lubiyatga uchradi. Ruslar Kare va Boyazidni egalladilar va Arzurumga yaqinlashdilar.

Turkiya sulh surashga majbur bo‘ldi. Turk sultoni rus podshosiga yo‘llagan telegrammasida urushni keltirib chiqargan «baxtsiz sharoitlar» haqida afsus nadomatlar bildirib «imkoni boricha tezroq behuda qon to‘kishlariga chek qo‘yishni otashin» ishtiyoq bilan so‘radi. Rossiya uchun ham tezlik bilan sulh tuzish juda zarur edi. Moddiy vositalar va odam kuchlarining tangligi so‘nggi nuqtaga etgan edi. Turklar ustidan qozonilgan ajoyib g‘alabalardan so‘ng rus armiyasining sharoiti og‘ir edi: front orti bilan aloqalarda ortiq cho‘zilib ketgandi, dengizdan Angliya fronti havf solar, ustboshlar yo‘q edi, qo‘shin ichida yuqumli kasalliklar keng tarqalgan edi.

Rus armiyasi Konstantinopoldan 12 km. masofadagi San-Stefano qishlog‘ini egalladi. Turkiya poytaxtini egallashdan Rus hukumati o‘zini tiyib turdi. Konstantinopol

egallangan taqdirda Angliya va Avstriya Rossiya bilan diplomatik munosabatlarni uzib qo'yish havfini solmoqda edi.

1878 yil 3 martda urushuvchi tomonlarning vakillari San-Stefanoda sulh shartnomasiga imzo chekdilar. Bu shartnomaga muvofiq Turkiya Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyaning to'la mustaqilligini tan oldi. Shu bilan birga Chernogoriya va Serbiya o'zining maydonini ancha kengaytirib oldi. Yangi davlat-Bolgar knyazligi vujudga keldi va o'z ichiga Dunaydan tortib Egey dengiziga qadar bolgar axolisi bo'lgan (Bolgariyaning o'zi, Sharqiy Rumeliya hamda Makedoniyaning bir qismi) barcha maydonini qamrab oldi. Bosniya va Gersegovina avtonomiya olishdi. 1856 yilda Ruminiyaga qo'shilingan Bessarabiyaning bir qismi Rossiyaga kaytarildi. Buning evaziga Ruminiya Dobrujani oldi. Osiyoda Rossiyaga Ardagan, Batum, Kare, Bayazid qaytarib berildi. Turkiya 310 mln. so'm kontributsiya to'lashi kerak edi.

San-Stefano sulh shartnomasi Bolqonda ruslar ta'sirini kuchaytirdi. Bolgariya chegaralari (u erlarda ikki yil davomida rus qo'shinlari qoldirilib turilgan edi) Konstantinopol dengiz bo'g'ozlari yaqinidan o'tar edi. Bolgariya Bolqon yarim orolidagi rus platsdarmi ro'lini kasb etdi.

Angliya va Avstriya-Vengriya Rossiyaning Yaqin Sharqda bunday kuchayishiga yo'l berishni istamas edi. Shuning uchun ular San-Stefano shartnomasining shartlariga qarshi qat'iy norozilik bildirdilar. Chor xukumati yangi raqiblar bilan urushni davom ettirishdan qochib, San-Stefanoda Turkiya bilan imzolangan sulh shartlarini qaytadan ko'rib chiqish uchun xalqaro kongress chaqirilishiga rozi bo'lishga majbur bo'ldi. Rus diplomatiyasi kongressda Rossiya manfaatlari Bismark tomonidan qo'llab - quvvatlanishiga umid bog'ladi. Berlin kongress o'tkaziladigan joy sifatida tanlanadi. Biroq kongress chaqirilgunga qadar Bismark o'zining «halol dallolik» vazifasini ado etajagini oshkor etdi. Endi rus diplomatiyasining Germaniya yordamiga tayanishidan xech qanday naf yo'q edi.

Mana shuning uchun Berlin kongreesida Rossiya tamoman yakkalanib qoldi. O'zining talablarini xarbiy namoyishlar bilan mustahkamlab olgan Angliya juda ham murosasiz edi. Bismarkning kongreesdagi «halol dallol» chiligi shunda ko'rindiki, rus diplomatiyasi ilgari ingliz hamda avstriyaliklar bilan kelisha olmagan barcha muhim masalalarda u Rossiyaning muxoliflarini qo'llab - quvvatladi. Kongressdagi diplomatik kurashlarning yakuni Rossiya hamda janubiy slavyanlarning manfaatlarini San-Stefano sulhining shartlariga nisbatan sezilarli darajada cheklab qo'yuvchi 1878 yil Berlin bitimi bo'ldi. Bolgar knyazligi avtonomiya sifatida tan olindi, ammo uning masofasi Bolqondan Dunay bo'ylab shimolga tomon bo'lgan maydon bilan cheklandi, Bolqondan- janubga tomon esa sulton xokimiyati ostida (xristian general-gubernator boshchiligida) Shimoliy Rumeliya avtonom oblasti tashkil etildi. Makedoniya Turkiyada qoldi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya mustaqil deb e'lon qilindi. Biroq Chernogoriya hamda Serbiya maydonining hajmi -qisqartirildi. Rossiyaning territoriyaga egaligi Quyi Dunay, Osiyoda esa Ardagan, Batum va Kare bilan chegaralandi.

Kontributsiya ilgari hajmda tasdiqlandi. Berlin bitimining qabul qilinishidan Rossiyaning Turkiya bilan urushmagan dushmanlari yaxshi foydalandilar: Avstriya-Vengriya Bosniya hamda Gersegovinani egallash va ularni boshqarish huquqini oldi, Angliya esa (Turkiya bilan yashirin kelishuvga muvofik) Kipr orolini egalladi, bu yerni u keyinchalik harbiy-dengiz bazasiga aylantirdi.

Rus turk urushining barcha sabablari (xududiy ekspansiya, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, o'zgarishlar kiritish, evropada o'z kuchini kuchaytirish) kabilar emas edi. Darxaqikat, ahvol juda boshqacha edi. Bu haqida knyaz V.P. Mitserskiy shunday deb yozgan

edi: “Rossiyada hamma narsa ikkinchi darajali bo‘lib qoldi, faqatgina slovyan savollari egalladi”. Qirol manifesti ham kuyidagilardan iborat: “Turkiyaning xristian aholisiga bor kuchimiz bilan yordam berishimiz kerak. Ularni xayot tarzini yaxshilash va ta‘minlashda butun rus halqi ko‘makchidir, Bolqon yarim oroli xristianlari kurashida bor kuchimiz bilan qatnashamiz”. Dunay armiyasining bosh qo‘mondoni buyuk knyaz Nikolay Nikolaevichni (12 yanvar 1877 yil) Ruminiyani shaxzodasi Karlga yozgan maktubini ham aynan misol qilib keltiramiz: “ Bu maqsad bosib olishdan iborat bo‘lib, qiynalغانlarni qiynovchilardan halos etish, Sharqda qonuniy xuquqini ta‘minlash, Evropani daxshatga solgan xolatlarni qaytarishdan iborat edi”. (Bolgariyadan 1876 yilgi kozg‘olon ko‘zda tutilgan edi)

Angliya parlamenti debatlarida xaqqoniy so‘zlar yangray boshladi. Gersog Argleyskiy bu haqida: “men ishontiramanki, Rossiyadagi holatlar xaqqoniydir, Turk qishloklaridagi ozodlik aholi tinchligi faqat Rossiyaga bog‘liqdir, Rossiyaning bu jixatlariga – insonlarga g‘amxo‘rlik deb ta‘riflash mumkin va bu bilan tarizda qoldi”.

Slovnyalarga Rossiya mablag‘, dori darmon, qurol aslaxa, porox bilan katta yordam berib turdi. Ibodatxonalarda, yig‘ilishlarda, dumalarda doimiy yiginlar bo‘lib turardi. Beg‘araz yordam qilishlari 1,5 mln. rublda miqdorida mablag‘ ajratdi. Bunday miqdoragi yig‘inlar juda qo‘p martda amalga oshirildi. Bu xaqda E.S.Rodshiyaskiy shunday deb yozgan edi: “urish bugun Rossiyani birlashtirdi” jamiyatning “yuqori” va “quyi” kishilari slovyanlarga ozod qilishga kirishdilar. Serbiyada kurashayotganlar uchun qurol aslaxa, dori darmonlar sotib olib yuborildi, 5 mingta xolis yordamchi serb armiyasiga yuborildi. Harakatni F.M. Dostaevskiy “yozuvchi kundaligi” da shunday deb ta‘rifladi: “Buyuk Shark burguti dunyoga uchdi. U chegaralarni bo‘zishni, bosib olishni istamaydi, faqatgina sezilgan insoniyatni ozod qilish, erkinlik berishni istaydi”. Konsler E.M.Gorchekov va Aleksandr II himoyasidan tashvishga tushdilar. Qirol vazir D.Mimatinga shunday deb yozgan edi: «Yana butun Evropa bizga teskari o‘girilib olibti». Moliya vaziri M.X Reytern o‘zoq muddat Rossiyaning o‘radan chiqargan, ya‘ni moliyaviy inqirozdan, taqchillikdan chiqargan shaxs bo‘lib, mamlakatda qo‘p islohatlar o‘tkazar edi, u o‘z ishidan ozod qilishlarini so‘rab ariza yozdi, ammo unga rad javobini berishdi. Bolgarlar, Serblar, Chernogorlar, Bosniyaliklar, Gersegovinaliklarga sovuqqonlik bilan qarab turish ham mumkin emasdi. Rossiyadagi jarayonlarni qonuniylashtirish maqsadida Avstro – Vengriya bilan Budapesht konvensiyasi (yanvar- mart 1877 yil) to‘zilgan edi. Ammo Peterburgda quruq qog‘ozga imzo chekayotganlarini sezmadilar ham. Lozer Frans Iosiv 1876 yil 13 noyabrdagi majlisda xuquqiy bo‘zilishlar rejalashtirildi. Yig‘ilganlar Rossiga qarshi so‘z yuritishdi. Frans Iosiv bu haqida: «Rossiya bilan urish ishni ayni pallasida kirdi» dedi. Majlis Rossiyaga anik qanday zarba berish kerakligi haqidagi fikrlarni rejalashtirish bilan yakunlandi. Peterburgda bunday holatni kutmagandilar. Avstro – Venger tashqi ishlar grafi G. Androschi Turkiya, Britaniyaliklarga o‘zini xotirjam tutib hech qanday Budapesht Konvensiyasi bo‘lmagandek qilib o‘zini ko‘rsatdi. Gorchakov bu paytda Konstantinopolni egallash Rossiyaning rejasida emas, balki Qora dengiz xududlaridagi tinchlikni saqlashdan iboratligini ta‘kidladi. Aleksandr II Konstantinopolni bosib olmaslikka so‘z berdi. Shunday qilib, monarx qonunlari ham hech qanday yangilik kiritmadilar. Xolat yana shundayligicha qoldi. XIX asrni 20 yillaridayok Rossiya Bolqonda o‘ziga hos ishlarni bajarishga muvofik bo‘lgandi. Gersog A.Velington Peterburgda 1826 yil Nikolay I qabulida bo‘lganida Dunayda biron aholini egallashni istamasligini bildirdi. Angliya – Rus ishtirokida protokolida 23 mart (arpel) ikala taraflari ham Bolqon yerlarini egallamasligi haqida kelishib olgan edilar.

Rus-Turk urishi ohiri 1828 – 1829 yil Serbiyaning kuchayishi, Maldoviya va Valaxiyaning o‘z boshqaruviga egaligi, Gretsiya mustaqilligini tan olinishini bilan borardi. Dunay

irmogi Rossiyaga Bolqondan qo'shildirdi. Raqiblar bu g'alabalardan hayron qolmadilar, ammo dunyo bu g'alabalardan keyin ham yaraqlab ketmadi, nihoyatda tinch edi. Shuningdek ruslardan qo'rquv holati ham paydo bo'lgan edi. Xindiston va Bolqon yarim oroli O'rta Osiyodan Avg'onistongacha Rossiyani kuchli raqib sifatida tan oldi. Markazda Usmoniylar imperiyasi turardi. Bu ziddiyatlar Evropa siyosatida halqaro munosabatlarda o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular uchun Rossiya varvar, Evropa madaniyatidan yiroq, zo'rovon mamlakat sifatida, tasuvvur qildi. XIX asrning 30 yillarida «Hindiston, Buyuk Britaniya va Rossiya» nomli risolida Rossiyani zo'rovon mamlakat emasligi haqida muallif o'z fikrlarini bildirgan edi. 1833 yilda sultonning iltimosiga ko'ra, Rossiya harbilari Bosforning Osiyo qirg'og'iga – Misrda Muhammad Alining zulmidan qutqarish uchun olib kelishdi. Britaniya hukumati Turkiyaga havf solayotgan hatarni e'lon qildi. Ruslardan qo'rqayotgan deputat T.Attut: «Endilikda Konstantinopol, Skutori ham ruslarning qo'lida. Ertaga ruslar Dardeniyadagi qolgandarni egallaydilar, ularni chiqarish uchun million funt sterling sariflaymiz. Bu ahvoldan ko'ra ruslar Temzaga kelib Londonni bosib olsa bo'lardi, 17 yildan buyon biz nihoyatda yuzlarimiz shuvitdir. Rossiyaga urish ochish payti keldi. Persiyani bir tomondan, Turkiyani ikkinchi tomonidan Rossiyaga qarshi tortsak Polsha qarab turmaydi. Oqibatda Rossiya tuproq kabi sochilib ketadi» deb so'zini yakunladi. Bu “rahmatli” so'zlarni eshitgan rus harbiysi kemaga utirib uyga jo'nab ketdi.

XIX asrning 30 yillarida publitsist, diplomat, “Turkiya va uning zahiralari” kitobini muallifi D. Urkort Istanbulda “Portfolio” jurnalini nashr qiladi. Urkort ushbu jurnalda 1830 – 1831 yillarda knyaz Konstantin Pavlovichning arxividagi yozishmalarini chiqara boshladi. Rossiya zo'ravonligi, usmon imperiyasiga qarshiliklar haqida bo'rtirib ko'rsatdi. Rossiyaga shunday deb ta'rif berildi: “Turkiya qo'zi, Rossiya esa bo'ridir”.

Urkort va Pensalvi Rossiyani butun vaqt mobaynida ana shunday ravishda yomonlab keldi. Bu Britaniyalik faollar Rossiyani Usmon imperiyasini zo'ravonlariga ish yuritgani haqida qo'p maqolalar yozishdi. Bu davrda Nikolay I esa barcha halqaro konvensiyalarga tayanib ish yuritdi, sitqi dildan Rossiyaga hizmat qilayotgan edi. Imperatritsa Mariya Aleksandrovnaning qizi A.F.Tyucheva Rossiya tarixidagi 30 yilni o'chirib yuborilgan deb hisoblardi. Nikolay I qo'rkmas, jasur rısar edi. Koyzer Frans Iosiv esa 1809 yilda o'z fikrlarini bildirgan edi: “Bizning kelajagimiz – sharqda. Biz Rossiyani burchakka olib boramiz, rus siyosatini puchga chiqaramiz. Albatta eski do'stlarni bunday qilmaslik kerak, ammo siyosatda boshka yo'l tutib bo'lmaydi. Sharqda bizning raqibimiz - Rossiyadir”. Keyinchalik uni ug'li Rodolf Mariya Vecherani sevib qolib, o'zini o'ldirib yubordi. Buyuk Britaniya Rossiyani orqa elkasidan zarba berishni mo'ljallayotgan edi. Nikolay I esa buni kutmayotgan edi. 1853 yilda Istanbulda Britaniya elchisi Stretfurt – Konning Lord Redlkirtga aylanib knyaz A.S. Menmikovga talablar qo'ya boshladi. Rus elchilari tomonidan “ko'rsatilsin” degan so'zlar inglizchada “buyruk qilininsin” deb tarjima qilindi. Shunday holatda Rossiya parlamentiga ko'rsatildi, va shunday deb tarjima kilindi. “14 million xristianlarni boshqarishdan sulton vos kechsin” deb aytili.

Nikolay I urish yakunida «Turkiyaning barcha xristan xududlari mustaqil knyazniklarga aylantiriladi, yana davlat sifatida faoliyat yuritadi. Ularga din erkinligi beriladi. Evropaning xristian davlatlari sirasiga qo'shiladi» degan fikirda edi. Rossiya o'z diqqatini Turkiya davlatini Bolqon halqlari uchun to'zitib yuborishga qaratdi. Bu ish oqibatida Rossiya 1856 yilda janubiy Beslorobiyani, Qora dengizdagi harbiy flotni yo'qotdi. Bundan foydalangan Buyuk Britaniya O'rta er dengizidagi xukumronlikni qo'lga kiritishga movofik bo'ldi.

XIX asrning 70 yillariga qaytamiz, 1875 yil – Yangi Shark inqirozining boshlanish davri bo‘ldi. 1976 yil Bulgariyada aprel inqilobi Serbiya va Chernogoriyani Turkiyaga qarshi urishi boshlandi. Bulgariyada kurbonlar soni qo‘p va yaxshiylarcha o‘ldirishgan edi. Serb armiyasi engildi. Bosniya va Gersegovinadagi qutqarishlar muvvofoqiyat keltirmadi. Bu jarayonlarga Rossiya aralashdi. 1877 yil 4 aprelda Aleksandr II Kishinyovda urish haqidagi monifestga imzo chekdi. Rossiya xristianlar ozodligi uchun tog‘dek turdi. Aholi soldat va ofitserlarni usmon daxshatidan kutqaruvchilar sifatida kutib oldi. Aleksandr II vagoni gullarga to‘lib qaytdi. Birinchi bo‘lib general V.I.Turko Bolqon tog‘larini qo‘lga kiritdi. Turk polk boshlig‘i Usmon poshsho Rossiyaliklardan ilgari 40000 ming harbiylari bilan Plevna shahrini egallashga muvvoфик bo‘ldi. Rossiya va Rumıniya ittifoqidagi armiya muvoffaqiyatsizlikka erishdi. Rulay va Kavkaz fraktida ham noxushliklar sodir bo‘ldi. 28 noyabr (10 dekabr) Usmon poshsho kasal, nochor, yarador xarbilarini taqdirga tashladi. 6 ming kishi vafot etdi. 43 ming kishilik armiya bilan qoldi. Rossiya va Rumıniya xarbilari 100 ming kishilik kuchga ega edilar. Skobolov butun kuchi bilan kurashmoqda edi. 1878 yil yanvarda Sofiya olishdi, keyinchalik qarshiliklarsiz Andrianalovkuni qolgan kiritishdi. Istanbulda kalit topilgan edi. Serbiya yana janga kirishdi. Britaniya nashriyoti Rossiya haqida yana bo‘lmag‘ur gaplarni yozib borardi. Jumladan, ruslar Konstantinopolda xukumronlik o‘rnotmokchi ekanliklari Avstriyani ham egallashga harakat qilayotganlari haqida maqolalar chop etdi. 1878 yilni 19 fevralida Aleksandr II taxtga o‘tirish vaqtida N.P.Ignatev Istanbulga yaqin San - Stefano degan joyga Turkiya bilan tinchlik shartnomasi bilan imzoladi. Unga asosan, janubiy Besorobiya Rossiyaga qaytarildi, Zakavkaziya Korsk, Ardagan, Boyazit va Batumi kirdi. Rumıniya, Serbiya, Chernogoriya mustaqil davlatlar bo‘lib qoldi. 500 yillik tortishuvlardan so‘ng Bolgar halqlariga davlatchilik berildi. Bosniya va Gersegovina avtanom bo‘lib qoldi.

Rossiya tashqi ishlar vazirligi anik faktlarni taqdim etdi, ammo London va Vena buni qabul qilmadilar, Rossiyaga qarshi tana tashlovlar aytili. Ayniksa Bulgariya xududlarini kengayganini Vena va Britaniya elchilarini hazm qilmadilar. Yana urish bo‘ladimi? Degan savolga D.Andrein: «Kerak bo‘lsa albatta» deb javob berdi. London tana so‘zlariga qoniqmasdan tutmir mushtini ishga tushirdi. 1878 yil 18 fevralida admiral Xarbiy, 1841 yilgi London Konsepsiyasini bo‘zib, Marmar dengiziga kelib Dardenelodagi yerni egalladi. Ularni birida Aleksandr II qizi Mariyani kuyovi gersog Alfred Erenburskiy qo‘mondallik qilardi. Kris urishi etarli edi, shunda aniq bo‘ldiki, Britaniya kemalarii chiqarish uchun hech qanday kuch yo‘qligi aniq bo‘ldi. Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi ziddiyatlar Bolqonda kuchayib bordi. «Rossiya Bolqondagi slovyan halqilariga qizg‘onib qaraydi. O‘z navbatida Britaniya ham bunga tish tirnog‘i bilan qarshi chiqqan edi. Rossiya va Buyuk Britaniya o‘zaro maslahat yuritishga kelishdi. Rossiya elchisi P.A.Insvalov o‘zini Londonda noqulay xis qilmokda edi: «Qrolicha aqlidan ozgan, biz bilan urishish uchun Angliya konstitutsiyasini o‘zi yetarli emas» deb aytdi. Britaniyaliklar ikki yildan beri ya‘ni Rossiya bilan urishish yoki Angliyani past ketishidan birini tanlashmokda edi. Britaniyaliklarni hammasi shovinistlar edi. Polshada general Argayil, T.Sinkler Rossiya bilan urishish befoyda ekaligini Turk davlatlari o‘z ozodliklari yo‘lida faqat Rossiyaga bog‘liq ekanliklarini aytib o‘tdi. Shunday bo‘lsada Britaniyaliklar tish tirnoqlari bilan qarshi edilar. Bolqon halqilarini ozod qilishda Rossiya 1877 - 1878 yillarda 248,654 ming kishi yarador bo‘ldi, yuz ming kishilar o‘ldirildi, Rossiya qurbon bo‘ldi. Rossiya juda qo‘p narsa va odamlarini qurbon qildi, yo‘qotdi. Britaniya hokimiyatidagi zidiyatlar noroziliklar tugadi. B.Sonner bu haqida shunday deb yozgan edi: «Xudoga shukr, Rossiya bilan urishdan qutildik». Aslida Britaniyaliklarda ham qo‘plab qurbonliklar bo‘ldi.

Berlindagi 1878 yil 1 (13 iyun) – 1 (13) iyuldagi kongresdan Gorchekov og‘ir kayfiyatda kaytdi. Bu haqida podshoga shunday deb yozgan edi. «Biz butun Yevropani qaxriga uchradik». Rossiya delegatsiyasi yolg‘iz, hech qanday madatsiz, kongress ishtirokchilarining qiziqishlarisiz qatnashdilar. Ruminlar bilan Rossiya o‘rtasida janubiy Bosniyaliklar bilan shimoliy Dobrudjaga almashish haqida ochiqchasiga nizo davom etib kolmoqda edi. Serb xukumatini tashqi ishlar vaziri Ristich Avstriya delegatsiyasi bilan hamkorlik qilishga urindi, ammo buni mamlakatga hech qanday foydali tomoni yo‘q edi. Berlindagi holat Rosssiya delegatsiyasi uchun yomonlashdi. Bismark aniq savollarni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashladi. Asosiy ish Shuvalovning zimmasiga yuklatildi. Bu haqida shunday deb yozishdi: «Kongresda hamma Shuvalov o‘z vazifasini uddaburon, ustalik bilan bajarishini sezdilar». Dizreli fikricha, Shuvalov qiyin va mashaqqatli vazifasini sabr va o‘z qobiliyati bilan bajardi. Kongressda Bolgariyani San Stefani mushkul axvolda qoldi. Uning xududi uch barobarga qisqartirilgan, faqatgina shimoliy qismi davlatchilik va avtanomiyaga, ammo juda keng xuquqlarga ega bo‘lib qoldi. Bolgariyaning janubiy qismi janubiy Ruminiya nomi ostida xristian – gubernator tasarrufida qoldi. Kongressda Bolqon mamlakatlari ovoz berish xuquqini qo‘lga kiritishga erishishdi. Gretsiya va Rumıniya delegatsiya a‘zolarini takliflari esa tinchlanmadi ham. Bismark Bolqon halqilarini Evropa taraqqiyotidan past deb xisoblanardi. Albanlarga esa bunday halqi mavjudligi haqida bilmaymiz ham deb javob berdi. Grek xukumati tomonidan T. Delilis Krit, Epir, Fessoliy va Makedoniya erlarini qo‘shib olish haqida gapirdi. Kritni qo‘shishga kelishishmadi, ammo 1881 yilda Epir va Fessoliyani qo‘lga kiritishga erishishdi. Kongressda Serb deplomati Ristich muvofaqiyatga erishdi. U avstraliyaliklar bilan Avstro - Vengriya o‘rtasida halqaro savdoni rivojlantirish haqida kelishib qoldi. Serbiyani xududi bu davrda 11 ming km² ni tashqil qilardi. Bolqon mamlakatlar London va Vena juda qiziqtirardi. Chernogoriya o‘z xududini ikki martaga kengaytirdi. I.S.Aksakov kongress haqida shunday deb aytdi: «Ular Rossiyadan g‘alaba gulchambarini yulib, uni o‘rniga aldor qalpoqli kiydirmokdalar». Ularni fikricha Rossiya konstantinoplni boshqarib, Bosfar va Dardenollarda tinchlik va osoishtalikni ta‘minlab boshqarish mumkin edi. Afsuski ular kutgan natijaga erishmadilar. Rossiyada bu holat ustida noroziliklar kuchayib bormoqda edi. 1878 yilni «Evropa axborotnomasi» jurnalida berlin traktini Rossiya uchun Engilish deb xisoblamaslik kerak deb yozishdi. Keyinchalik tashqi ishlarni boshqargan B.M.Chicherin bu haqida shunday deb yozgan edi: «Sog‘lom fikirlovchi har qanday rus kishisi Konstantinopolni Rossiyaga qo‘shib olishni xoxlamaydi, bu Rossiyani zaiflashishiga olib keladi. Agar Rossiya bo‘lib qolishni xoxlasa o‘rnidan turib O‘rta er dengiziga borib qolish kerak». Kongressda qatnashgan ayibsiz ayibdor delegatsiya a‘zolariga esa: «Berlin traktini imzolaganlar Rossiya obro‘cini tushirib, ammo har bir rus kishisini cheksiz hurmat e‘tiboriga sozovor bo‘ldilar» deb kayfiyatlarini ko‘tardi.

Serbiya, Rumıniya, Chernogoriyani dalat deb tan olishi muammo bo‘lib qoldi. Uch katta mamlakat juda og‘ir inkirozda edi. Serbiya, Bolgariya va Chernogoriya birinchi Bolqon urishiga qadar 1812 yilda Usmon imperiyasiga qarshi borib engishga muvofaq bo‘ldilar. Bolgariyani ahvoli ham hamon ziddiyatli edi, chunki undagi o‘zaro urishlar hal isloxatlarini yuritilmasligi mamlakatni nochor axvolga solgan edi. Bessarabiyaning Rossiyaga qaytarish fikri bilan Bolgariya Qora dengiz chiqish yo‘lini to‘shish fikri bilan chiqdi. Rossiya bunday takliflarga rozi bo‘lmadi. 1882 yilda Turkiyada nemis xarbiylari egalladi. 10 yil davomida K. Fander Gold boshqardi. 1899 yildan – Berlin – Bizantiya, (Santbul) Bog‘dot temir yo‘l qurilishini boshlab yuborildi.

1882 yildan 1895 yilga qadar ayrim qisqa muddatli uzilishlar bilan Gretsiyada Triqupis hukumati hokimiyat tepasida turdi, bu hukumat yirik burjuaziyaning, asosan, chet

el kapitali bilan bog'lik bo'lgan savdo burjuaziyasining manfaatlarini ifodalardi. Triqupis hukumati tashqi siyosatda Fransiyaga suyanib ish ko'rardi. Turkiyaga nisbatan esa yon berish pozitsiyasida turdi. Turkiyaga qarshi qo'proq qat'iy harakat qilish tarafdori bo'lgan, millatchilar degan gruppanint boshliri bo'lgan Deliyanis xukumati ikki marta Triqupis xukumatining o'rnini oldi. yilda Krit orolida ommaviy qo'zg'olon boshlanib ketdi, bu qo'zg'olonga turk hukmdorlarining Krit avtonomiyasiga qarshi harat qilgan buyruqlari sabab bo'ldi. Turk qo'shinlari misli ko'rilmagan shafqatsizlik bilan qo'zg'olonni bostirdilar. Turklarning vahshiyliklari Gretsiyada g'azab o'tini kuchaytirib yubordi, butun mamlakatda kritiklarga yordam ko'rsatishni talab qilgan norozilik mitinglari va namoyishlari boshlanib ketdi. Krit axolisini «sabr qilish» ga da'vat qilib turgan Triqupis hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Turkiya hukumati orolda ba'zi bir islohotlar o'tkazishga va'da qildi, lekin qo'zg'olon bostirilgandan keyin va'dasini unutib yubordi. Yildan-yilga kritiklarning noroziligi kuchayib, 1896 yil oxiriga borganda yangi qurolli ko'zg'olon boshlanib ketdi, bu qo'zg'olonga javoban Turkiya orol aholisini yanada ta'qib ostiga olib, qonga botirdi.

Deliyanis boshliq Gretsiya hukumati Krit oroli ishlariga aralashishga harakat qilib ko'rди. 1897 yil 15 fevralda Krit orolini turklardan tozalash maqsadida orolga grek qo'shinlari otryadi tushirildi, oradan bir oz o'tgach esa shaxzoda Georg qo'mondonligi ostida bu yerga grek floti yubornldi. Lekin Gretsiya hukumatining bu choralariga Evropa davlatlari, asosan, Angliya qattiq qarshilik ko'rsatdi, chunkn uning o'zi Krit oroliga ko'z olaytiryatgan edi. Greklar flotini buyuk davlatlarning eskadrasi yo'lda to'xtatdi. Bu davlatlar nomidan, agar Gretsiya harbiy choralar ko'rishdan voz kechsa, Krit oroliga avtonomiya beriladi, deb va'da qilindi.

Mamlakatda vatanparvarlik tuyg'ulari juda kuchayib ketdi. 1894 yildayoq ofitserlar tomonidan tashkil qilingan yashirin «Milliy jamiyat»ning hukumatga ta'siri juda katta bo'ldi. Bu jamiyat turklarga qarshi qat'iy harakat qilishni talab qildi. 1897 yil 2 fevralda Gretsiyada umumiy safarbarlik e'lon qilindi. Gretsiya qo'shinlari Fessaliya rayonida Turkiya chegaralariga yaqinlashib bordilar, 1897 yil aprel oyi boshlarida esa «Milliy jamiyat» tarafdorlaridan to'zilgan otryadlar Makedoniyaga bostirib kirdilar. 1897 yil 17 aprelda Turkiya Gretsiyaga urush e'lon qildi. Boshlanib ketgan urush harakatlari birdaniga Gretsiyani noqulay ahvolga solib qo'ydi. Gretsiyaning urushga tayyorgarlik ko'rmaganligi ma'lum bo'lib qoldi. Gretsiya floti buyuk davlatlarning talabi bilan bir joyda qimirlamasdan harakatsiz turdi. Turklarning Krupp qurol-yaroqlari bilan ta'minlangan va son jihatidan qo'p bo'lgan huzurlikdagi armiyasi Epir va Fessaliyada greklar armiyasiga ustma - ust bir qancha zarbalar berib, uni mag'lubiyatga uchratdi. Turklar armiyasi bu ratsonlarni uch haftagacha ishg'ol qilib turdi.

Gretsiya hukumati o'rtada vositachi bulishni iltimos qilib rus hukumatiga murojaat etishga majbur bo'ldi. Rossiyaning bu ishga aralashganligi orqasida turk qo'shinlari hujumni to'xtatib, Gretsiya armiyasi tor-mor bo'lishdan omon qoldi. 1897 yil 19 mayda Rossiya vositachiligi orkasida vaqtincha sulh to'zildi. 1897 yil 4 dekabrda esa Konstantinopolda o'zil-kesil sulh shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofik., Gretsiya Turkiya xukumatiga 4 million turk funti miqdorida harbiy mukofot va urush harakatlaridan zarar ko'rgan xususiy kishilarga 100 ming funt haq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oldi.

Bu urushda Gretsiyaning engilishi natijasida monarxiyaga qarshi kayfiyat birdaniga kuchayib ketdi. 1898 yil 26 fevralda Afinada qirol Georgga suyuqasd qilindi.

1893 yilda davlat qarzi 598 million oltin diraxmaga o'tdi. Xukumat davlatning singanligini e'lon qildi va zayomlar yuzasidan to'lov tulashni 30 foizga yetkazib kamaytirdi.

Buyuk davlatlar Gretsiyaning urushda mag'lubiyatga uchraganligidan foydalanib, uning ustidan chet mamlakatlar moliya kontrolini o'rnatdilar. 1898 yilda Gretsiyada xukumatdan mustaqil ravishda Xalqaro moliya komissiyasi to'zildi, bu komissiya Angliya, Fransiya, Italiya, Avstriya-Vengriya va Germaniya vakillaridan iborat bo'lib, davlat monopoliya-laridan, ba'zi bir aksizlar va tamojnyadan tushadigan daromadlar (zayomlar yuzasidan tulanadigan protsentlarni ta'minlash uchun) shu komissiya ixtiyoriga berildi. Bu komissiya aslida, mamlakatning butun iqtisodiy hayotini o'z nazorati ostiga oldi.

Garchi Gretsiya Krit uchun kurashda engilgan bo'lsa ham lekin buyuk davlatlarning yordami bilan bu orolda juda muhim reformalar o'tkazildi, bu reformalar natijasida Krit orolini sulton faqat rasmiy jihatdan idora qilib turardi. Buyuk davlatlar bu reformalarni «ta'minlash» baxonasi bilan orolga o'z qo'shinlarini tushirdilar, bunda Germaniya bilan Avstriya-Vengriya qatnashmadi, ular Turkiya bilan janjallashishni o'zlari uchun noqulay deb bildilar.

Aleksandr II va uning maslahatchilari turklarning ger-segovinaliklarga yon berishiga erishish uchun Turkiyaning ahvoli murakkablashganligidan foydalanib qolishga qaror qildilar. Chor hukumati Serbiya knyazligini Gersegovinaning mahalliy aholisiga yordam berishga va ularning yozuvchilari bo'lgan turklarga qarshi ypysh e'lon qilishga (1876 yil) undadi. Lekin turk qo'shinlari serblarni butunlay tor-mor qilib tashladilar. Chor hukumati oldida ikki yo'l turardi yoki Rossiya Turkiyaga qarshi urush boshlashi kerak edi, yoki chekinishi kerak edi. Agar u chekinadigan bo'lsa, hukumatning ahvolini mustahkamlaydigan muvaffaqiyat o'rniga, u juda og'ir mag'lubiyatga uchragan bo'lardi. Chor hukumati urushishga qaror berdi, bu urush avvalo uning xayolida ham yo'q edi va mamlakat urushga yaxshi tayyorlanmagan edi.

Bolqon ishlaridan Rossiyadan tashqari, uning Bolqondagi va Turkiyadagi ta'sir doirasi uchun kurashda raqib bo'lgan Avstriya-Vengriya va Angliya ham manfaatdor edilar.

Turkiyaga qarashli slavyan xalqlarining ozod qilinishi ularning Avstriya-Vengriyadagi ezilgan hamqabilalari uchun signal bo'lishi mumkin edi. Bu esa «quroq» monarxiyaning bo'linib ketishi demak edi. Shu bilan bir vaqtda, Avstriya burjuaziyasi Bolqonga qiladigan iqtisodiy ekspansiyasidan muhim mol sotish bozori sifatida manfaatdor edi. Bularning hammasi natijasida Avstriya-Vengriya Bolqondagi rus siyosati va rus ta'siriga qarshi uzluksiz ravishda kurash olib bordi.

Angliyaga kelganda shuni aytish kerakki, u Turkiyani o'z ta'siriga olishga intildi. Angliya bu bilan undan ingliz kapitali uchun bozor sifatida va ayniqsa Osiyoda Angliya-Rossiya raqobati davom etayotganligi uchun muhim strategiya pozitsiyasi sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Qrim urushi Angliya harbiy floti bo'g'ozlar orqali Qora dengizga kirib boradigan bo'lsa Rossiyaga qanday xavf tug'dirishi mumkinligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. Kapitalistik Angliya Turkiya ustidan hamkorlik qilishga intilib, bo'g'ozlar xo'jayini Rossiya bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Suvaysh kanali qurilgandan keyin (1869 yil) O'rta Dengiz Angliya uchun Hindistonga boradigan eng yaqin yo'l bo'lib qol-di. Endilikda bu er orqali Britaniya imperiyasining asosiy kommunikatsiya yo'li o'tardi. Kanal hozircha fransuz kapitaliga qarashli bo'lganligi uchun bu yo'lda fransuz floti ma'lum darajada xavf tug'dirardi. Angliya O'rta dengizda rus flotining ham paydo bo'lish imkoniyatiga yo'l qo'yishni mutlaqo istamasdi. Shuning uchun ham u, Avstriya-Vengriya singari, Ros-siyaning Turkiya ustidan g'alaba qilishini istamasdi.

1877 yil aprelida Rossiya bilan Turkiya o'rtasida urush boshlandi. Rossiya Ruminiya bilan ittifoqchilik shartnomasi tuzdi, shunga asosan Ruminiya Rossiya tomonida Turkiyaga qarshi urush boshladi. Rus qo'shinlari Ruminiya territoriyasi orqali Dunaygacha borib, uni kechib o'tdi, bunda urushga tayyor bo'lmaganligi natijasida ko'p vaqtini bekorga o'tkazdi.

Urush chor Rossiyasining iqtisodiy jihatdan qoloqligini ko'rsatib berdi. Armiyaning moddiy va sanitariya qismlari etishmaganligi, intendantlarning suiste'mol qilishlari va armiyaning yomon ta'minlanganligi zaif, chirib borayotgan Usmoniylar imperiyasiga qarshi urushni anchagina murakkab vazifaga aylantirib qo'ygan edi. Urush harakatlarining Rossiya markazidan uzoqligi va yo'llarning og'irligi ham urush olib borishni qiyinlashtirib qo'ygan edi.

Shunga qaramay, rus armiyasi hamma sohalarda turk armiyasidan ustunlik qildi va harbiy qismlarning muvaffaqiyatli harakat qilishi hamda rus soldatlarining qahramonligi tufayli bir qancha yirik janglarda uni tor-mor keltirdi. Bu muvaffaqiyatlar 1878 yil yanvariga kelib Rossiyaning g'alabasini ta'minladi. Rus qo'shinlari Konstantinopol (Stambul)gacha bordilar.

Lekin chor hukumatida ham, agar Konstantinopol qo'lga olinadigan bo'lsa, Angliya Rossiyaga qarshi urush boshlashi mumkin, degan xavf tug'ildi. Haqiqatan ham Dizraeli hukumatining qaroriga asosan ingliz eskadrasini bo'g'ozlarga kirib borib, Turkiya poytaxtidan uzoq bo'lmagan joyda langar tashlagan edi. Bunday sharoitda chor hukumati hujumni davom ettirishga jur'at qilolmadi. U poytaxt darvozalariga yetib borgani holda, turklarga sulh shartlarini topshirish bilan cheklandi.

1878 yil 3 martda Qonstantinopol yaqinidagi San-Stefano qishlog'ida sulh haqidagi bitim imzolandi. San-Stefano bitimi bilan shu vaqtgacha Turkiya sultoniga qaram bo'lib kelgan Serbiya bilan Ruminiyaning to'la mustaqilligi o'rnatilgan edi. Ruminiya Rossiyaga Qrim urushidan keyin olgan Bessarabiyaning bir qismini qaytarib berdi. Buning o'rniga u Turkiyadan Shimoliy Dobrudjani oldi. Yangi davlat - Bolgariya barpo qilindi. Bu davlat knyazlik bo'lib qolib, nomigagina Turkiyaga qaram bo'lishi kerak edi. Chor hukumati Bolgariyada Rossiyaning ta'siri ustunlik qiladi, deb o'ylagan edi. Bolgariya bo'g'ozlarga chiqish uchun rus platsdarmi bo'lib qolishi kerak edi. San-Stefano bitimiga ko'ra, Bolgariya knyazligi sharqda Qora dengizdan g'arbda Serbiya chegaralari va Oxrid ko'ligacha, shimolda Dunaydan, janubda Egey dengizigacha cho'zilib ketib, bu bilan Makedoniyaning katta qismini o'z ichiga oldi. Rus qo'shinlari Osiyoda ham turklarga og'ir talafotlar yetkazib, Rossiya atrofdagi rayonlari bilan birga Kars, Botumi, Ardagan va Bayazidni ishg'ol qildi. San-Stefano bitimi serb va rumin xalqlarining turk hukmronligidan milliy jihatdan to'la ozod bo'lganligini va Bolgariyani ozod qilishda katta qadam tashlanganligini bildirardi.

Bu bitim Angliya va Avstriya-Vengriya hukmron doiralarining keskin noroziligiga sabab bo'ldi, chunki ular allaqachonlardan beri, bir tomondan, Rossiyaning ta'siri har qanday tarzda bo'lsa ham kuchayishiga, ikkinchi tomondan esa, slavyan xalqlarining ozod bo'lishiga qarshilik ko'rsatib kelardilar.

Angliya va Avstriya-Vengriya hukumatlari San-Stefano bitimi shartlarini barcha buyuk davlatlar ishtirokida xalqaro kongressda qayta ko'rib chiqishni talab qildilar. Chor hukumati bunga qarshilik ko'rsatishga urinib ko'rdi. Lekin bu erda ko'p narsa Germaniya imperiyasining pozitsiyasiga bog'liq edi. Germaniya San-Stefano bitimini qayta ko'rib chiqish haqidagi fikrni aytgandan keyin chor hukumati bunga rozi bo'lishga majbur bo'ldi. Rossiya mutlaqo yakka bo'lgan edi, uning moliyasi urush tufayli izdan chiqqan edi. Chor hukumati xavf katta, degan fikrda bo'lib, kongressda qatnashishdan bosh tortish yangi urushlarga sabab bo'lishi mumkin deb qo'rqdi, chunki u ikkita ulug' davlatga qarshi yana bir marta urush olib borish uchun zaiflashib qolgan edi. Rossiya hukumati kongressda o'z pozitsiyasini mustahkamlab olish uchun Angliya bilan dastlabki bitim tuzish yo'lini tutdi. 1875 yil 30 mayda Londonda ingliz-rus memorandumini imzolandi, bu memorandumga muvofiq, Angliya San-Stefano bitimining Buyuk Bolgariya haqidagi punktidan tashqari bir qator shartlarini qabul qildi. Rossiya bu eng muhim masalada yon berdi.

1878 yil 13 iyunda Berlinda Bismark raisligida San-Stefano bitimini rasmiy ravishda qayta ko'rib chiqish uchun xalqaro kongress to'plandi. Asosiy masala - Bolgariya masalasi bo'yicha - Berlin kongressi ishlab chiqqan traktat amalda faqat ingliz-rus bitimi shartlariga rozi bo'lishdangina iborat bo'ldi. Bolqon yarim orolidagi slavyan oblastla-rining San-Stefano bitimi bo'yicha mustaqillik olgan katta qismi kongress tomonidan Usmoniylar imperiyasi zulmi ostida qoldirilgan edi. Makedoniyaning qismati ana shunday bo'lgan edi. Bolgariyaning Bolqon tizma tog'laridan janubda joylashgan qismi ham Turkiyaning bir viloyati bo'lib qolgan edi, u sharqiy Ruminiya deb atalib, unga keng avtonomiya berilgan edi. Bolgariya knyazligi asosan Bolqon tizma tog'laridan shimol tomondagi territoriya bilan cheklanib qolgan edi.

Kongress Avstriya-Vengriyaga Bosniya, Gersegovina va Noviy Pazar sanjoqlarini okkupatsiya qilish huquqini berdi; formal ravishda Bosniya va Gersegovina Turkiyaga qaram bo'lib qoldi, lekin Avstriya-Vengriya boshqaradigan territoriyaga aylandi. Gabsburglarning monarhiyachi hukumati ana shu slavyan oblastlarini bosib olib, ularni Serbiyaga qo'shib olishning oldini olishga intildi va bu bilan o'zining Janubiy slavyan oblastlari chegarasida yirik slavyanlar davlati barpo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi.

Berlin traktati Serbiya va Ruminiyaning San-Stefano bitimida e'lon qilingan mustaqilligini tasdiqladi, vaholanki, Avstriya-Vengriya ham, Angliya ham, Germaniya ham bunga xayrixoh emas edilar.

San-Stefano bitimining Bessarobiya va Dobrudjaga talluqli shartlari o'z kuchida qoldi. Rossiya Kichik Osiyoda Bayaziddan voz kechishga majbur bo'ldi.

Angliya bilan Avstriya-Vengriya San-Stefano bitimini qayta ko'rib chiqishga erishib, Turkiyaning himoyachisi bo'lib ko'ringan bo'lsalar ham, ular amalda uni juda shafqatsizlik bilan taladilar. Dizraeli hukumati kongress ochilishigachayoq Turkiya bilan shartnoma tuzgan bo'lib, bu shartnomaga muvofiq Turkiya Angliyaga Uрта Dengizning Sharqiy qismida-gi kuchli strategiya pozitsiyasi bo'lgan Kipr orollarini berishi kerak edi. Kipr aholisining katta qismini greklar tashkil etishiga qaramay, ingliz mustamlakasiga aylangan edi.

Rossiya-Turkiya urushi Bolqonni turklar hukmronligidan ozod qilish ishida olg'a qo'yilgan qadam bo'ldi. Biroq Bolqon xalqlarini ozod qilish ishidagi muvaffaqiyatlarga to'la erishilmagan edi. Bu xalqlarning kattagina qismi Turkiya sostavida qolgan edi, Bosniya bilan Gersegovinaning esa bir chet el hukmronligini ikkinchisi bilan almashtirishi kerak edi.

Berlin traktatining shartlari rus jamoatchiligini g'azablantirib yubordi. Chor hukumatining effektli tashqi muvaffaqiyatlar yordami bilan ichki qiyinchiliklarni hal etish sohasidagi hisoblari muvaffaqiyatsizlikka uchradi, bu esa chorizmning yangidan zaiflashuviga olib keldi

2. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA BOLQON DAVLATLARINING TURKIYA TOMONIDAN EZILISHI

XIX asrning 70- yillariga kelganda janubiy slavyanlarning ko'pchiligi hamon chet el zulmi ostida ezilmoqda edi. Faqat kichkina Chernogoriya va Serbiya knyazligini tashkil etgan serb yerlarining bir qismigina mustaqil edi. Janubiy slavyanlar— bolgarlar, makedoniyaliklar, Bosniya va Gersegovina slavyanlari, serblarning talaygina qismi Turkiya hukmronligi ostida edi.

Xorvatlar, slovenlar Avstriya-Vengriya monarxiyasi, g'arbiy slavyanlar (chex, slovak, polyak)ning bir qismi ham Gabsburglar hukmronligida edi. Polyaklarning ikkinchi qismi Germaniya, uchinchisi esa chorizm zulmidan azob chekardilar. Chet el zulmi slavyan xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi.

XIX asrning 60-yillaridan boshlab slavyan xalqlarining milliy-ozodlik kurashi kuchaydi. Jasur bolgar inqilobchisi Vasil Levskiy mustaqil demokratik Bolgariya Respublikasini barpo etish rejasini ilgari surdi. U Bolgariya hududida yashirin qo'zg'olonchi qo'mitalar tuzdi. 1872- yilda V.Levskiyni qatl etishgan bo'lsa-da, ozodlik harakati pasaymadi. 1876- yil aprel oyida Bolgariyada qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilar o'z bayroqlariga «Ozodlik yoki o'lim» shiorini yozgandilar. Talantli publitsist va shoir Xristo Botev (1848-1876) ozodlik harakatiga yo'l boshchilik qildi (u turklar bilan bo'lgan jangda 1876- yil 1- iyunda qahramonlarcha halok bo'ldi. U halok bo'lgan kun Bolgariyada Xotira kuni sifatida nishonlanadi).

Bolgar xalqining kurashi juda og'ir kechdi. Kuchlar teng emas edi. Turklar 30 000 ga yaqin bolgarni qilichdan o'tkazdilar va ko'plab qishloqlarini kultepaga aylantirdilar.

Bu vahshiyliklar ko'plab mamlakatlar jamoatchiligini qattiq g'azablantirdi. Rus hukumati Bolqonda o'z ta'sirini mustahkamlash uchun qo'zg'olonlardan foydalanishga qaror berdi va Bolqon slavyanlarini yoqlab chiqdi.

Yuqorida aytilganidek, Rossiya hukumati 1877-yil 24-aprelda Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Turkiya Bolgariya davlatining tuzilishiga rozilik bildirdi. Mustaqillikka ega bo'lgan davlatlar konstitutsiyaviy monarxiya davlatlari bo'lib qoldilar.

Yangidan vujudga keltirilgan Bolgariyaning davlat tuzumi 1878 yi1 aprelda Tirnovo Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilingan Bolgar knyazligi Konstitutsiyasida (Tirnovo Konstitutsiyasida) uzil-kesil rasmiylashtirildi. Tirnova Konstitutsiyasiga muvofiq Bolgariya knyazligi meros bo'lib qoladigan konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilindi. Bu konstitutsiya Bolgariya mustaqilligini amalda tasdiqladi.

Buyuk Xalq Majlisi (parlament) bolgar taxtiga pruss ofitseri, rus imperatritsasining jiyanı Aleksandr Battenbergni sayladi. Uni rus imperatori Aleksandr II tavsiya qildi va Yevropaning buyuk davlatlari buni ma'qulladi. Biroq u tez orada Rossiyaga qarshi siyosat yurita boshladi.

Rossiya Battenbergning siyosatiga norozilik belgisi sifatida o'z zobitlarini Bolgariyadan chaqirib oldi. Shunday sharoitda, bir guruh oliy zobitlar 1886- yilning 9- avgustida Battenbergni taxtdan voz kechishga majbur etdilar.

Biroq Buyuk Xalq Majlisining raisi S.Stambolov rahbarligidagi siyosiy kuchlar bu zobitlarni qamoqqa oldilar. Mamlakatda hokimiyat S.Stambolov boshchiligida Davlat Kengashi qo'lga o'tdi. Bu hol Rossiya-Bolgariya diplomatik munosabatlarining uzulishiga olib keldi.

1887- yilda Buyuk Xalq Majlisi nemis shahzodasi F.Koburni Bolgariya podshosi etib sayladi. Uni Avstriya-Vengriya tavsiya etgan edi. Ayni paytda, Angliya, Germaniya va Turkiya bu nomzodni qo'llab-quvvatladi.

1896- yilda Rossiya-Bolgariya diplomatik munosabatiari qayta tiklandi.

Turklar zulmiga qarshi Albaniyaning mustaqillik uchun kurashi kuchaydi. Albaniyadagi barcha siyosiy kuchlar Albaniyani taqsimlab olish rejalarini tuzayotgan chet el davlatlari siyosatiga qarshi chiqdilar. Bolgariyada chiqayotgan «Kalendari kombiar» («Milliy kalendar») degan jurnal 1902- yilda shunday deb yozgan: «Biz uyquda yotibmiz, bu vaqtda esa bizning ustimizda savdolashmoqdalar».

1912- yil 28- noyabrda Albaniya mustaqillikka erishdi. Turklarning qariyb besh asr davom etgan hukmronligi tugadi.

Bolgariyaning qiyin ahvolga tushib qolganidan foydalangan Turkiya 16- iyul kuni Bolgariyaga hujum qildi.

Bolgariya mag'lubiyatga uchradi. 20-iyulda Turkiya undan Adrianopolni qaytarib oldi. Buxarest shahrida 1913-yil 10-avgustda Tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Bolgariya qo'lga kiritgan yerlarning bir qismidan ajradi. Ruminiya, Serbiya va Gretsiya hududlari kengaydi. 24-sentabrda Turkiya va Bolgariya o'rlasida Konstantinopolda imzolangan shartnomaga ko'ra Adrianopol Turkiyaga qaytarildi.

XIX asrning 70-80 yillarida fransuz sarmoyasi Bolqon yarim oroli mamlakatlariga, shuningdek, Turkiya, Ispaniya, Lotin Amerikasiga chiqarildi. g'oyat katta miqdordagi kapital zayom shaklida Rossiyaga chiqarildi. Masalan, XIX asr oxirida Rossiyaga 7 mlrd dollar miqdorida zayom berildi.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Rossiya uchun an'anaviy bo'lgan tashki siyosatini asosiy yunalishlari saqlanib qolgan. Bosh masala yaqin Sharq – Qora dengiz bug'ozlari va Bolqon bo'lib qolaverdi. Mustaqillikga erishgan va Usmoniylar imperiyasi hokimiyati ostida qolayotgan Bolqon xalqlari, Rossiyani o'zlarining homiysi va ittifoqchisi deb qaraganlar. Ammo ular bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlanishi masalasi, Bolqondan muhim strategik va iqtisodiy tariqasida manfaatdor bo'lgan Yevropaning ko'pgina mamlakatlarini qarshiligiga uchradi.

1908 yilda xalqaro munosabatlarda yana inqiroz xolati yuzaga keldi. Avstro - Vengriya Turkiyaga tegishli bo'lgan Bosniya va Gersegovinani bosib oldi. Bu esa Turkiya va Serbiyaning noroziligini keltirib chiqardi. Ushbu xududlarning egallanishi, Germaniya va Avstro - Vengriyaning mavqeini kuchaytirib, Antanta davlatlari manfaatlariga daxl qilardi va yagona mustaqil davlatga birlashishga intilgan janubiy slavyan xalqlarining xayotiy manfaatlariga zid edi.

Germaniya Rossiyadan Bosniya va Gersegovinaning bosib olinganligini tan olishni talab qildi. Urushga tayyor bo'lmagan Rossiya bunga rozi bo'ldi. Ushbu inqiroz Bolqonda ayniqsa Rossiya va Serbiya bir tomondan, xamda Avstro - Vengriya ikkinchi tomondan o'rtasidagi ziddiyatlarning o'ta keskinlashishiga olib keldi.

1912 yilda Antantaning ko'magida Bolgariya, Serbiya, YUnoniston, Chernogoriya ittifoq tuzishdi. Maqsad - Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash olib borish. 1912 yilning oktyabr oyida Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi urush boshladilar. Noyabr oyida bolgar qo'shinlari Konstantinopolga (Sambul) yaqin kelishdi. Turkiya sulx tuzishni so'radi. Tinchlik muzokaralari Londonda dekabr oyida boshlandi, biroq faqat 1913 yilning may oyida tinchlik shartnomasi imzolandi.

Turkiya Bolqon ittifoqiga Bolqon yarimorolidagi Enos - Midiya chizig'i bo'ylab joylashgan egaliklarini topshirdi. Xaritada yangi davlat - Albaniya paydo bo'ldi. Ushbu davlat de - fakto (amalda) Avstro - Vengriya va Italiyaga qaram bo'lib qoldi.

Turkiyaning mag'lubiyati Avstriya - Germaniya blokining mavqeini zaiflashtirdi. Serbiya va YUnoniston Turkiyadan olingan erlarni bo'lib olish paytida o'zlarining ulushlarini ko'paytirishni Bolgariyadan talab qildi. Avstro - Vengriya va Germaniya Bolgariya podshosini o'zining sobiq ittifoqchilariga xujum qilishga turtkiladilar. Rossiya harbiy to'qnashuvning oldini olishga va Bolqon ittifoqini saqlab qolishga iloji boricha harakat qildi.

1913 yil iyun oyida Bolgariya Serbiyaga qarshi urush boshladi. Ikkinchi Bolqon urushi Bolqon ittifoqining ichki ziddiyatlari va unga qarshi amalga oshirilgan qo'poruvchilik ishi oqibati boshlandi. Bolgariyadan Janubiy Dobrudjani tortib olishni niyat qilgan Ruminiya Serbiya va Yunonistonga qo'shildi. Turkiya xam, Adrianopolni qaytarib qo'lga kiritish umidida bo'lib, Bolgariyaga qarshi urush boshladi. Bolgariya bir necha kun ichida tor - mor etildi. 1913 yilning avgust oyida Buxarestda Bolgariyaning obro'sini to'kadigan shartnoma imzolandi. Unga binoan

Makedoniya va Frakiyaning bir qismi Serbiya va Turkiyaga o'tdi. Ruminiya Janubiy Dobrudjani qo'lga kiritdi, Turkiyaga esa Adrianopol qaytarildi. Bolqon ittifoqi tarqab ketdi. Biroq Buxarestda o'rnatilgan tinchlik uzoqqa cho'zilmadi. Bolqonda yuzaga kelgan vaziyat "o'z uchqunini" kutib turgan "Yevropa qo'rxonasini" eslatardi.

1908-1913 yillardagi Bolqon krizisi haqida gap ketganda avvalo, 1908-1909 yillarda boshlangan Bolqon krizisini aytish lozim. Germaniyaning qo'llab quvvatlashiga tayanib, Usmoniylar imperiyasini zayflashganidan foydalanib, Avstro-Vengriya 1908 yilda Bosniya va Gersogoviniyani anneksiya kildi. Rossiya Germaniyaning tayzi ostida Avstriya hukumatining bu harakatini tan olishga majbur boldi. Chunki harbiy vositalar bilan unga to'sqinlik qilishga tayyor emas edi.

Bolgariya o'z mustaqilligini e'lon kildi. 1912 yilda Rossiyaning vositachilariga Bolgariya bilan Serbiya Avstro-Vengriya hamda Turkiyaga qarshi ittifoq tuzishdi, ularga Gretsiya ham qo'shildi. Turkiyaga qarshi boshlangan urushda ular tezda muvaffaqiyatlarga erishdi. Usmon imperiyasi o'z hududlarini butun Yevropa qismini yo'qotdi, faqat uning poytaxti Istanbulga tutashgan tor joyigina qoldi. Biroq, 1913 yilda Bolqon davlatlari - Bolgariya, Serbiya va Gretsiya o'rtasida territorial ziddiyatlar tufayli tuqnashuv kelib chiqdi. Buni Avstriya va German diplomatlarning ig'vo va fitnalari avj oldirgan. Rossiya, Bolqon ittifoqining qulashini va sobiq ittifoqchilar o'rtasidagi urushni oldini ola olmadi. Bolqon urushini yakunlagan Buxarestdagi tinchlik konferensiyasi, bu ziddiyatlarni olib tashlab qolmasdan, balki ular qullab quvvatlay boshlagan Bolgariya va Rossiya tarafini olgan Serbiya o'rtasida keskinlashdi. Bolqon va Yevropaning «Poroxli ombori»ga aylandi. Bolqon va Yaqin Sharqda Yevropa davlatlarini ziddiyatlari o'ta keskinlashishni avj oldirdi. Bu regionda ham Germaniya ta'sir doirasini kengaytirmoqchi bo'ldi. Uning ittifoqchisi Avstriya-Vengriya esa Bosniya va Gersogoviniyani anneksiya qilgach, Serbiyani bosib olishga tayyorlandi. Rossiya Bolqondagi o'zining siyosiy mavqe'ini saqlab qolishga intildi, Bog'ozlarni va Konstantinopolni bosib olishni orzu qilardi.

Chorizm katta zarar ko'rgan Uzoq Sharq avantiyurasidan qutulib olgandan va birinchi rus revolyusiyasini bostirgandan keyin, o'z e'tiborini yana Bolqonga va Yaqin Sharqqa jalb qildi. Biroq bu gal u ikki yangi faktorga:

Turkiyaga Germaniyaning ta'siri o'sganligi va Bolqonda Avstriya-Vengriya (buni ham Germaniya qo'llab-quvvatlardi) ekspansiyasi keskin ravishda o'sayotganligi faktoriga duch keldi.

Italiya qo'shinlari Tripolitaniya joylashgan zaif turk garnizonlari ustidan osonlik bilan g'alaba qozondilar. Lekin Tripolitaniya yashagan arab qabilalari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Turk hukumati o'z navbatida Tripolitaniyaning bosib olinishini uzoq vaqtgacha tan olishga ko'nmagan edi. Biroq Bolqonda boshlanib ketgan urush Turkiyani sulh shartnomasiga imzo chekishga va Tripolitaniyani italyan imperialistlariga berishga 1912 yilda majbur boldi.

3. ROSSIYANING BOLQON YARIM OROLIDA OLIB BORGAN SIYOSATI

XIX asr oxirida Rossiyaning G'arb davlatlar bilan munosabatlar ancha yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro'siga putur etgan va harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Rossiyaning diplomatik mag'lubiyati Bolqon yarimorolidagi ustunlikdan mahrum bo'lishdemak edi. Qora dengizning daxlsiz qilinishi mamlakat janubini dushman hamlasi xavfidan himoyasiz qoldirdi va shu bilan birga

dvoryanlar hamda sanoat doiralarini ochiq dengizga chiqishyo'larini qo'lga kiritishmaqsadida istilochilikni amalga oshirishimkoniyatidan mahrum qilib qo'ydi.

Rus diplomatiyasi yangi sharoitda o'zining ish usullarini takomillashtira boshladi. U sof diplomatik vositalardan foydalanish bilan birga jamoatchilikning yordamiga suyanishga urinar, matbuot orqali Rossiya va boshqa davlatlarning jamoatchiligi fikriga murojaat qilardi.

Parij kongressida Avstriya bilan Fransiya o'rtasida bir qadar ziddiyat borligi va shu bilan birga Fransiyaning Rossiya bilan yaqinlashishga mayli borligi aniq bo'ldi. Sulh tuzilgandan keyin Fransiyaning Rossiya bilan do'stona munosabatda bo'lishga intilishi yanada kuchaydi.

Qora dengiz va Bolqon masalasi Rossiya-Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning boshsababi edi. Serbiya-Turkiya urushi (1876 –1877) tugab, 1877-yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulh shartnomasiga Serbiya qo'l qo'ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G'arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizasiya va islohotlar o'tkazishni taklif qildilar. Rossiya aynan bir vaqtda demobilizasiya o'tkazish haqida muzokara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o'z vakillarini yuborishni so'radi. Ammo Turkiya bu taklifni rad qildi. 1877-yilning 12-aprelida Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e'lon qilish haqidagi manifestga qo'l qo'ydi.

Angliyaning qutqusi bilan Turkiya Rossiyaning slavyan xalqlari bilan bo'lgan janjalni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi taklifini rad etdi. Chor hukumati 1877 yilning aprelida urush boshlashga majbur bo'ldi, chunki bundan keyingi ikkilanishlar Rossiyaning taslim bo'lganligini bildirar va Bolqondagi slavyan xalqlari orasidagi obro'sini butunlay yo'qotib qo'yar edi. May oyida Ruminiya ham Turkiyaga qarshi urush boshladi.

Mamlakatning butun ichki hayotini qayta qurish davom etib turgan bir sharoitda rus hukumati uzoqqa cho'ziladigan urushga tayyorlana olmagan edi. Uning moliyaviy ahvoli hanuz og'ir edi. Harbiy islohotlar va armiyani qayta qurollantirish ishlari tugamagan edi. Armiyaning jangovar tayyorgarligi hali ham yangi zamon talablaridan juda orqada qolib kelmoqda edi. Nikolay rejimi sharoitida tarbiyalangan juda orqada qolib kelmoqda edi. Nikolay rejimi sharoitida tarbiyalangan yuqori komanda sostavining ko'pchiligi yangi taktika qo'llanishiga qarshilik qilardi. Ammo o'z birodarlari bo'lgan slavyanlarga chuqur xayrixoxlik bildirgan rus armiyasining jangovorlik ruhi juda baland edi. Soldatlarning jasurligi va fidokorligi, slavyanlarning milliy ozodlik uchun olib borayotgan kurashida ularga yordam berishishtiyoqi rus soldatlari va ofitserlarining yuksak ma'naviy xislatlarini belgilar edi.

Urush harakatlari Bolqonda va Zakavkazda avj olib ketdi. Rus qo'mondonligining planiga ko'ra, Dunay daryosidan kechib o'tib, shiddatli hujum bilan Bolqon tog'laridan oshib o'tilishi va Turkiya poytaxti Konstantinopolga qarab borilishi kerak edi. Bu plani bajarish uchun ancha ko'p qo'shin talab qilinardi. Lekin Bolqondagi urush harakatlari uchun ajratilgan kuchlar etarli emas edi. Turklar o'z qal'alaiga tayanib, rus qo'shinlarini Dunaydan o'tkazmaslikka ishongan edilar. Biroq turk qo'mondonligining mo'ljallari puchga chiqdi. 1877 yilning yozida rus armiyasi Dunaydan muvaffaqiyat bilan jang qilib o'tdi. G'eneral I.V. Gurko qo'mondonligidagi oldingi otryad tezlik bilan Bolgariyaning qadimgi poytaxti bo'lgan Tirnovo shahrini ishg'ol qildi. So'ngra Bolqon tog'laridan o'tadigan asosiy yo'l - Shipka dovonini egalladi. Biroq kuch etishmasligi natijasida bundan keyin oldinga siljish to'xtab qoldi.

Bolgarlar rus jangchilarini o'z xaloskorlari sifatida xursandchilik bilan kutib oldilar. Bolgarlar xalq lashkari otryadlari tuzdilar, tog'dan o'tiladigan yo'llarni tozaladilar, yo'l

ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qildilar, chiqishqiyin bo'lgan joylarga o'q-dori va oziq-ovqat etkazib berib turdilar.

Rus armiyasining Bolqon tog'larining bu tomonidan keng ko'lamda harakat boshlab yuborish uchun urinishi natija bermadi, chunki Gurko otryadida odam juda oz edi, rus armiyasining asosiy kuchlari esa Turkiyaning Plevna qal'asini qamal qilish bilan band edilar. Turkiya qo'mondonligi bu erga Chernogoriyadan katta kuch yubordi. Saralangan bu qo'shin Shipka dovonini shtrum qila boshladi. Shipka himoyachilari son jihatidan o'zlaridan beshbaravar ko'p bo'lgan dushman hujumini uch kun davomida qahramonlarcha qaytarib turdilar. O'qlar tugagach, soldatlar nayza va toshlar bilan jang qildilar. Shipka pozitsiyalari ruslar qo'lida qoldi, lekin ularning janubga boradigan yo'li berkitilgan edi. Qishkirdi. Tog'larda juda qattiq sovuq boshlanib ketdi. Qorbo'ron ko'z ochirgan qo'ymas, hamma yoqni qalin qor bosib, yo'llarni ko'mib yuborgan edi. Oziq-ovqat etishmas edi. Rus qo'shinlari haddan tashqari qiyin sharoitda jasorat va matonat mo'jizalarini ko'rsatib, 1878 yilning yanvarigacha dovonni mudofaa qilib turdilar. Rus qo'shinida sovuq urib va muzlab halok bo'lganlarning o'zigina 9,5 ming kishi edi.

Armiyaning g'arbiy qanotidagi rus qo'shinlarining Plevna (hozirgi Pleven) yonidagi urush harakati muvaffaqiyasiz bordi. Turklar bu erda rus qo'shinlarining katta kuchlarini to'xtatib qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Rus qo'shinlari Plevnani uch marta shtrum qildi, juda ko'p talofatlar berilgan bu hujumlar har safar ham muvaffaqiyasiz chiqdi. Shunda qo'mondonlik Plevnani qamal qilib olishga qaror berdi: shahar batamom o'rab olindi, madad kuchlarining kelishi hamda oziq-ovqat va o'q-dori olib kelinishi to'xtab qoldi. Turk armiyasining qurshovi yorib chiqish uchun urinishi natija bermadi. 1877 yil noyabr oyining oxirida 40 ming kishilik Plevna garnizoni taslim bo'ldi.

Plevnaning taslim bo'lishi slavyanlarning ozodlik harakatini yuksaltirib yubordi. Serbiya qaytadan urushga kirdi. Turkiyaning kuchlari holdan toydirilgan edi, shuning uchun endi u qattiq qarshilik ko'rsata olmay qoldi. G'eneral Gurko otryadi og'ir sharoitida Bolqon tog'laridan oshib o'tdi, bir qancha janglarda turklarni tor-mor keltirib, Sofiyani ishg'ol qildi. Gurko o'z bo'yruq'ida soldatlarga murojaat qilib, mana bunday deb yozgan edi: "Bolqon tog'laridan oshib o'tildi. Nimaga ko'proq taxsin o'qishni bilmaysan kishi: sizlarning dushmanga qarshi olib borilgan janglarda ko'rsatgan mardlik va jasurligingizgami yoki tikka tog'larga, izg'irin sovuqqa va qalin qorlarga qarshi kurashda boshingizdan kechirgan og'ir mashaqqatlarga chidab berishingizga va sabot-matonatingizgami! Yillar o'tar va bizning kelgusi avlodlarimiz bu notanishtog'larga kelib ko'rib, g'urur va tantana bilan:" Bu joylardan rus qo'shinlari o'tib, suvorovchi va rumyansevchi ajoyib bahodirlarning shon-shuhratini qaytadan ko'rsatib berganlar"—deb aytishadi.

Rus armiyasi saflarida bolgar xalq lashkarlarining askarlari ham qahramonlarcha jang qildilar. Ularning qahramonliklari hammani qoyil qoldirdi. "Bolgar drujinalari sherdek olishardi — deb yozgan edi shu urushda qatnashganlardan biri. Ular shiddat bilan hujumga otilar, chekinganda esa mahkam turib, qo'lidan qurolini qo'ymagan holda dushmanga tik boqib orqaga chekinar edi. Ular to'g'risida to'qilgan hamma hikoyalar zavq va hayratga to'la, 20 ming turk qurshovida qolgan 3 ming bolgar o'z postini bermay qo'lida saqlab qoldi. Ularning hujumi mislsiz jasorat bilan qilinardi". Bolgar xalq lashkarlari bilan rus soldatlarining 1877-1878 yillardagi urushda birgalashib olib borgan kurashi rus-bolgar jangavor hamkorligining ajoyib namunasidir.

1878 yilning yanvarida rus qo'shinlarining asosiy kuchlari Bolqon tog'laridan oshib o'tdilar. Rus qo'shinlarining umumiy hujumi boshlandi. Turklar Fillippopol (hozirgi Plovdiv shahri) yonida tor-mor qilindi, so'ngra esa ular Adrianopol (Endirne) ni jangsiz tashlab chiqdilar.

Konstantinopolga yurish uchun yo‘l ochilgan edi. Kavkazda ham rus qo‘shinlari turklarning armiyasini mag‘lubiyatga uchratdi va Boyazid, Ardaxon, Qors qal‘alarini ishg‘ol qildilar.

Turkiya batamom tor-mor bo‘lishxavfi ostida qoldi. Bu hol Angliya va Avstriya Vengriyani qo‘rqitib yubordi, chunki Turkiyaning tor-mor qilinishi Rossiyaning kuch-qudratini yanada kuchaytirgan bo‘lar edi. Angliya o‘z flotini Marmara dengiziga olib kirdi va Konstantinopol ishg‘ol qilingan taqdirda Rossiya bilan diplomatik munosabatlarni uzajagini bildirib tahdid qildi. Avstriya-Vengriya urushharakatlarining davom ettirilishiga qarshi qat‘iy norozilik bildirdi.

Rossiyaning hukumron doiralari oldida Evropa davlatlari bilan bo‘ladigan katta urushsharpsi kndalang bo‘ldi. Rossiya esa bunday urushga tayyor emas edi. Qo‘mondonlik qo‘shinni San-Stefano qishlog‘ida (Konstantinopol yaqinida) to‘xtatadi va 1878 yil fevralida shu erda preliminar (datlabki) sulh shartnomasi imzolandi.

Tuzilgan sulh shartlari Rossiya va slavyan xalqlari uchun foydali bo‘ldi. Yangi yirik davlat–Bolgariya tashkil topdi. Turkiya Chernogoriya va Serbiyaning mustaqilligini tan oldi. Ularning teritoriyasi ancha kengaydi. Ruminiya mustaqil davlat deb e‘tirof qilindi. Uning teritoriyasi ham kengaydi: u Shimoliy Dobrujani oldi. Turkiyaning xristianlar yashaydigan hamma oblastlarida sulton hukumati xalqning ahvolini yaxshilaydigan reformalar o‘tkazishmajburiyatini oldi. Janubiy Bessarabiya va Kavkazdagi Qors oblasti Rossiyaga o‘tdi. Rossiya katta kontributsiya (tovon) oldi.

Angliya va Avstriya-Vengriya Bolqonda Rossiya mavqeining mustahkamlanishidan hamda yirik slavyan davlati – Bolgariyaning tashkil topishidan norozi edi. Ular San-Stefano shartnomasini Evropa kongressiyada qayta ko‘rib chiqishni talab qildilar va urushochamiz, deb Rossiyaning qo‘rqita boshladilar. Bunday sharoitda chor hukumati shartnomani qayta ko‘rib chiqish uchun rozilik bildirishga majbur bo‘ldi. 1878 yilning yozida shu masalaga bag‘ishlangan Berlin kongressi bo‘ldi.

Rus delegatsiyasi ancha yon berishga majbur bo‘ldi. 1878 yilgi Berlin traktati (shartnomasi) ga ko‘ra, Bolgariya uch qismga bo‘lindi va faqat Shimoliy Bolgariyagina o‘z davlat mustaqilligini oldi. Chernogoriya va Serbiya teritoriyalariga qo‘shilgan erlar kamaytirildi. Bosniya bilan Gersegovaniyani Avstriya-Vengriya okkupatsiya qildi. Munofiqlik bilan Turkiyani himoya qilishshiori ostida chiqqan Angliya undan Kipr orolini tortib oldi. Berlin shartnomasi Rossiya g‘alabasining natijalarini kamaytirdi.

Shunga qaramay Rossiya-Turkiya urushi Bolqon xalqlari uchun juda katta ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Serbiya, Chernogoriya va Ruminiya to‘la mustaqillikka erishdi. Rus armiyasi bolgarlarni ko‘p asrlardan buyon davom etib kelgan turklar zulmidan ozod qildi. Bolgarlar ozod fuqaro bo‘lib oldilar va o‘z davlatini barpo etdilar. Bolgar xalqi rus armiyasini haqli ravishda o‘z xalaskori deb biladi.

Uchlar ittifoqi (Germaniya, Avstro – Vengriya va Italiya) 1905-1907 yillarda rus-yapon urushi natijasida Rossiyaning zaiflashuvidan foydalanib bolqondagi siyosatini kuchaytirib yubordilar. Bundan tashqari 1906 yilda Rossiya va Avstro - Vengriyadagi tashki siyosiy boshkaruvi katogon va siyosat yurituvchi kishilar kulida edi. Peterburgda A.P.Izvol’skiy - – kelib chikishi rus zodogonlari avlodidan bulib, ayyor, nozik, uzini uylovchi shaxs sifatida Britaniya libirelizm goyasiga tayanib uzok sharkda obrosizlangan Rossiyaning Bolqonda obro e‘tiborini kuchaytirishga xarakat kildi. Venada esa baron Erental kuchli, tugri suz aslzodalar oilasiga tegishli bulib, Avstro - Vengriyani Germaniyaga karamligidan ozod kilishga xarakat kilmokda edi. U Bolqonda yagona monarxiya kuchaytirib, Gapsburg imperiyasini zaiflashuviga siyosatini yul kuymaslik siyosatini yurgizdi. Tarixchi Sidney Fey bu ikki shaxsga shunday ta’rif

bergan: «ular ikki ushbilarmon siyosatchilar bulib, xech narsaga erisha olmasligini bilsalar ham, o'z hohishlarini Yevropada tinchlik va xalkaro shartnomalarni buzib bo'lsada, o'rnatishga harakat qilardilar». 1908 yil yanvar oyida Erentay Avstriyada mulk sultoni roziligi bilan Metrovitsiyaga temir yuli kurilishi e'lon kildi. Bu temir yuli Salonikgacha kurilgan edi. Bu albatta Bolkon yarim orolida va garb tarafdagi xalklar orasida Avstriya obro e'tiborini kuchaytirib yuborardi. Erentalni bu taklifiga Izolskiy shunday deb ta'rif berdi: «u oyoklarim ostiga bomba tashladi».

Izolskiy Avstro - vengriyani rejalariga qarshi ta'sir o'tkazish uchun Bolkondagi savollarni «muzlatish», Rossiyada bu savollar siyosatini faol yuritish taklishi bilan chikdi. 1908 yil 21 anvardagi vazirlar kengashida vazirlar maxkamasi raisi M.A. Stolipin, general shtab boshligi F.F. Politsin, xarbiy vazir Polivonof, moliya vaziri V.N.Kokovsev, Izolskiyni tashki siyosati borasida uylanib ish yuritish kerakligi, aks xolda Rossiyani xalkaro nizoga aralashib qolishi, yomon oqibatlariga olib kelishi haqida ogoxlantirdilar.

Nikolay II bu tayyorgallikni boshlar ekan, shunay so'zlarni bitdi: «Saqlanganni Xudo saqlaydi». 1908 yilda iyunda kichik Turk inqilobi, Yugoslav ozodlik harakatini kuchaytirib yubordi. Bu xolatlardan kelib chikib Erental Avstriyani boshkaruvchilari bilan o'zaro kelishib Usmonilar imperiyasi suvereniteti ostidagi Bosniya va Gersegovinadagi sharoitlarni o'zlashtirishga, 1878 yildagi Berlin kongressini Bekor kilishga kirishdi. 1908 yil 1 maydagi xatida Erental agar Rossiya bu siyosatini qo'llab-quvvatlasa, rus harbiy kemalariga barcha suv yullarini ochib yuborishini aytdi. Izolskiy bu taklishga rozi bo'ldi.

Izolskiy va Erental urtasidagi maxfiy kelishuvlar 1908 yil 15 – 16 sentyabrda Moroviyadagi Buxlavu qal'asida bo'lib o'tdi. Izolskiy Avstriyani Bosniya va Gersegovinada ajralishni, Erental esa rus harbiy kemalariga barcha yullarni ochishga o'zaro kelishib oldilar. Izolskiy bu savollarni yakuni Yevropa konferensiyasida hal bo'lishini eslatib o'tdi. Ammo konferensiyani boshlanmasdanoq 5 oktyabrda Avstriya Bosniya va Gersegovinadan ajralishini e'lon qildi. Izolskiy tashvishga tushdi; «Erental – djentelmen emas!» deb qichqirdi. Erental «ishonchdan chiqqan» edi. Ammo Parij va Londonda Izolskiyni hechkim qo'llab quvvatlamadi, ular uchun Rossiya harbiy kemalarini yo'li ochiqligi qiziktirmasdi. Izolskiy Avstro Vengriyani xududiy ajralishiga kelishuvi butun Rossiya va Bolkonda shov – shuvga sabab bo'ldi. Rossiya diplomatsiyasadi ham o'zaro mish-mishlar kuchayib ketdi, imkon qadar Avstriyani Bosniya va Gersegovinadan ajralishini cho'zish zarurligiga kelishildi. Ammo 1909 yil 21 martda Avstriyaning ittifoqdagi Germaniya bunga aralashib, Germaniya elchisi Izolskiyga shunday aniq savol berdi: «Rossiya Yevropa konferensiyasidan tashqari xolatda Avstriyani qo'llab quvvatlashi mumkinmi?», Izolskiydan javob talab qildi. Bu haqda kanslerni Byulov: «Germaniya qilichi Yevropa tarozisiga tashlandi» deb ta'rif berdi. Vilgelim II men o'z ittifoqdoshimni qilichim bilan ximoya qildim» deb yozgan edi. Vazirlar kengashida qirol boshchiligida Germaniya ultimatomiga rozi bo'lishga kelishildi; Rossiya urishga tayyor emas edi. Rossiyani bu engilishini «diplomatik ko'shma» deb atashdi, Izolskiy engilgan edi, Avstro Vengriya va Germaniya Pirro g'alabasiga erishgandilar, Rossiyani esa bu ishda ayibdor deb sanashdi. Gabsburg monarxiyasida slovyan yerlarining narhi ko'tarilib ketdi. Serbiya va Rossiya o'rtasida janjal qilmadi. Rossiya inqirozi Yevropada zo'riqishni kuchaytirib, 1914 yil falokatiga sabab bo'ldi.

4. 1908-1909 YILLARDAGI BOSNIYA INQIROZI VA BOLQON URUHLARI

Bosniya inqirozi va xalqaro aloqlarda muhim ahamiyatiga ega edi: Bolqonda kuchlik Yevropa davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlar birinchi jaxon urishiga olib keldi. Bosniya inqirozining

asosiy sabablaridan biri, kuchli Evropa davlatlari Avstro Vengriyani Turk xududlari bilan qo'shilishini qo'llab quvvatlagani bo'lsa yana biri Rossiya va Avstro Vengriya xukumati tomonidan A.P.Izolskiy va A.Erentalning Qora dengiz xududlari to'g'risidagi mahfiy uchrashi ham sabab bo'ldi.

Yigirmanchi asr boshlarida Bosniya inqirozi halqaro aloqalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Evropada ikkita harbiy siyosiy blok vujudga keldi: "uchlar ittifoqi" Avstro Vengriya, Italiya va "uchchlik kelishuvi" Angliya, Fransiya, Rossiya hamkorligida 1098 yilgi bahor kuzida muhim voqealar bo'lib o'tdi: ingliz- Fransuzlar va ingliz - ruslar o'rtasida yuqori darajadagi uchrashuv, Turkiyada davlat to'ntarish, Germaniya va Buyuk Britaniya xarbiy byudjetini o'sishi, Rossiya va Turkiya o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar. 1907 yilini sentyabr oyini ingliz - rus kelishivi asosida Rossiya tashqi ishlar vaziri A.P.Izvol'skiy Avstro -Vengriyalik hamkasbi A.Erental bilan suhbatida Rossiyani Bolqon qiziqtirishi eslatib o'tdi. Germaniya va Avstro - Vengriya Rossiyaga to'g'anoq bo'lmasdan yaqin sharqdagi harakatini davom etdiradilar, Germaniya Usmonlar imperiyasi bilan kelishib, temir yo'l qurilishi uchun rozilik bo'ldi, Avstro - Vengriya esa Istanbul bilan Salonin va Kosovo xududlari to'g'risida maxfiy bitim tuzishga muvofaq bo'ldi.

Bu davrda Buyuk Britaniya Rossiya bilan aloqalarini rivojlantirib berdi. 1908 yilning 27-28 mayida Revel portida Eduard VI va Nikolay II uchrashuvi bo'lib o'tdi. Britaniya monarxi ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlar, halqaro aloqalarini rivojlantirish xususida gapirdi. Izvol'skiy Rossiya va Angliya yaqinligiga qoniqmay, Rossiya va Avstro - Vengriya bilan ham yaqinlashishiga harakat qildi. 1878 yil Berlin traktining 25 moddasiga asosan janubiy slovyan erlari Avstro - Vengriya boshqaruvida bo'lsada, rasmiy xujjatlarda Usmoniylar imperiyasiga tegishli edi. Erental o'z ishlarini oxirlarida o'z ishlarini yakunlash maqsadida tayyorgallik ishlarini boshlab yubordi. 1907 yilini noyabr oyida Izvol'skiy bilan baxs yuritdi. Bu baxsda Bolqon masalalariga alohida e'tibor berildi. Erental shunday taklif berdi: "Rossiya Avstriya bilan hamkorlikda ish yuritish mumkinmi?" ya'ni bu ikki kuchli davlat Turk imperiyasiga tegishli status - kvoni buzish muxim. Izvol'skiy Erentalga "Rossiya xech qachon xududiy buzilishlarda qatnashmaydi" deb aniq javobni berdi. Lekin kerakli joyda quvatlashishini ham aytdi. 1908 yil aprel – iyunida Rossiya va Avstro - Vengriya ministrlari orasida Avstro Vengriya, Belgiya va Sersegovina Rossiya bo'g'ozida rejimni o'zgartirish haqida shartnoma imzoladi.

1908 yil 21 iyunda Sankt – Peterburgda "favqulotda majlis" bo'lib, unda tashqi ishlar vazirlari, harbiy va dengiz vazirlari, moliya vazirlari Parij va Konstantinopldagi Rossiyalik elchilar qatnashdilar. Unda Rossiya va Turkiya qiziqishlari o'rganildi.

Uch kundan keyin general shtabi boshlig'i F.F. Politsin Odessa harbiylariga "zamonaviy siyosiy Turkiya Bosfora harakat qilishimizni talab qilmoqda" deb ham yozadi. Izvol'skiy vaqtan unimli foydalanib Rossiyada Qora dengiz oqimlaridagi xuquqini kuchaytirishi ta'minlash yo'llari o'yladi. 1908 yili 6 (19) avgust oyida Avstro – Vengriya Bosniya va Sersegovina o'z xukumronligini o'rnatish rejasini tuzdi. Shu tariqa Avstro – Vengriya, Berlin traktini buzdi.

1908 yilning 2 – 3 (15-16) sentyabrda Izvol'skiy va Erental o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Bosniya va Sersegovina hukumron bo'lish, Rossiyaga Qora dengiz yo'llarini kengaytrish haqida so'z berdi. Ular bir birini qo'llab quvvatlash xaqida so'z berdilar. Shu jumladan Erental ham Rossiya, Germaniya oldida quvvatlash taklifiga rozi bo'ldi.

Bu uchrashuv rosmilashtirilmadi. Nikolay II bu kelishuvdan xursand edi. Ammo bu kelishuv amalga oshmayotgani hayratlanarli edi. 1908 yilining Borxstesgenda Germaniya tashqi

ishlar vaziri V.SHey bilan Italiya tashqi ishlar vaziri T.Titoni bilan muzokara olib bordi. T.Titoni darhol Izvolskiyga Tripolitaniyani egallashni aytdi. Rossiya xukumati Avstro – Vengriya do‘stlik munosabatlarini o‘rnatib, Konstantinopol va boshqa unga yaqin xududlarini jamlash haqida taklif berdi. 1908 yilini 8 oktyabrda Avstro – Vengriya, Bosniya va Gersegovinada xukumronlikni yo‘lga kiritdi. 23 sentyabrda Istanbuldagi Rossiya elchisi I.A.Zinovev Abdul-Hamid II va Tursiya tashqi ishlar vaziri Axmed Tofiq poshsho bilan uchrashgan edi. Avstro – Vengriyani xarakatlariga sovuqqonligi bilan qarab bo‘lmasligini ham aytib o‘tdi.

Britaniya o‘z navbatida Germaniya Bosniya Marokandda o‘z o‘rnini kuchaytirishga ish tirnog‘i bilan karshi edi. Tashqi ishlar vaziri E.Trepin xarakatlari Izvolskiy va Erentalning diplomatik o‘yini natijasida kuchga chikdi.

Grey, Avstro – Vengriya xukumatiga «Berlin traktini buzilganligini Turkiya hech qachon Qirol xazratlari tomonidan tan olinmasligini aytdi. Britaniya Turkiyani qo‘llab quvvatlab, Avstro – Vengriyani Muxokama qilayotgan bo‘lsada Qirol uz fikridan qaytmadi, Izvolskiy Evropa poytaxtlari bo‘ylab muzokaralarinii, davom ettiraverdi.

Izvolskiy va Erental o‘rtasidagi bitim Bolqon ishlaridagi muxokamalaridan biri edi. Parijda Izvolskiy tayanch bo‘lla olmasligini bildirdi. Fransuz tashqi ishlar vaziri S.Pishon, fransuzlar Izvolskiy va Erental orasidagi kelishuvidan norozi edi. Fransiya Tursiya suverenitetini qo‘llab quvvatlashishini ham bildirdi. Rossiya siyosatchilari orasida Bosniya va Gersegovina Avstro – Vengriyaga o‘tishi, Bosfor va Dardanellani Rossiyaga o‘tishi to‘g‘risida qizg‘in siyosiy bahslar boshlanib ketdi. Bu Bolqonda muammolar chiqarishi mumkin edi. Rossiya – yuqori oqimlarga yul surar edi. Aslida Rossiyani na Bosniya, na Gersegovina qiziktirar edi.

1908 yilini 12 oktyabrda Izvolskiyning hatti harakatlari va takliflari Britaniya vazirlar majlisida muxokama qilindi. Grey Izvolskiyni talablariga salbiy javob berishni taklif qildi: «Izvolskiyni xarakatlari sezilarli oqibatlariga olib kelishi mumkin- bu xarakat Angliya va Rossiya munosabatlarini butunlay yaqinlashtiradi yoki uzib yuboradi». Uzoq majlisdan, muzokaralardan keyin ham Britaniyada yagona qaror chiqarilmadi. Natijada Izvolskiyni ko‘p takliflariga salbiy javob qaytarildi. Izvolskiyni shu Londagi muzokaraga bog‘liq edi. Shuning uchun ham jon jaxdi bilan xarakat qila boshladi. Nihoyat 1908 yili 12 oktyabrda Grey uni uchunchi martda qabul qilishga erishdi. Uchrashuv Greyini uyida bo‘lib o‘tdi. Uyda Londandagi Rossiya elchisi A.K. Benkendorf ham ishtirok etdi. Grey Izvolskiy talablarini Britaniya xukumati bilan yana bir bor tanishib olishni bildirdi. 1908 yili 14 oktyabrda Grey Izvolskiyga shahsiy memoreandum taqdim qildi. Unga asosan: «Ingliz xukumati Bo‘g‘oz yo‘llarini hamma uchun bir hil ochilsagina taklishni qo‘llab quvvatlashishini aytib o‘tdi».

Memoreandumdan shuni tushunishi mumkin ediki, suv yo‘llari nafaqat Rossiya balki barcha mamlakatlar uchun ochiq bo‘lsagina, London Rossiya taklifiga rozi bo‘lishi aytilgandi. Shuningdek yana yangi ikkita Grey tonidan berildi. Birinchisi suv yo‘llardagi o‘zgarishlar xalqaro munosabatlarga yomon ta’sir ko‘rsatmasligi kerak, ikkinchi, albatta bu ishlarda Turkiyani roziligini olishi kerak. Birinchi martda Britaniya xukumati Turkiya xukumatini mavjudligi va uni xuquqlarini xisobga olgan edi. Grey: “Rossiya va barcha davlatlar uchun suv yo‘llari ochiq bo‘lishiga ko‘nmaydi” deb xisoblardi.

Izvolskiy Grey bilan uzoq muzokaralashgandan keyin bu xaqida shunday deb yozgan edi: “Rossiya suv yo‘llari xaqida so‘z ochganda, angliya doimo turli bahonalarni rukach qiladi. Vaxolanki Rossiya va Angliya o‘rtasidagi munosabatlar do‘stona bo‘lsa ham. Bu munosabatlar uzilishi ham mumkin”.

1908 yilini 26 mentyabrda Turkiya xukumati Rossiya taklifiga rozi bo‘lishini bildirdi. Bu jarayonda Angliya va Fransiya tomonidan madad oldi.

Berlinda bu xodisalarni diqqat etibor bilan kuzatishar edi. 1908 yilini 19 oktyabrda germaniya elchisi A.Purtalis Izvolskiyni yoniga tashrif buyiradi. Germaniya elchisi Izvolskiyga butun Yevropa davlatlari omasidan faqat Germaniya, Rossiya, Yaponiya urishi xavfini olishda yordam berganligini eslati o'tdi. Germaniya bu ishlarda o'z xissasini qo'shishini ham aytdi. Rossiya esa bunday gaplardang sung ham teskari o'girilib oldi. Alxessir konferensiyasida Rossiya Germaniya butunlay rad javobini berdi. 1908 yilini kuzida Rossiyalik xukumat a'zolari yangi Bolqon davlatlarini tuzishni boshlab yubordilar. Serbiya Turkiya bilan yaqinlashishni xoxladi. Avstro Vengriyani Bosniya va Gersegovinaga xukumronligi Serbiya, Chernogoriya, Turkiyani daxshatga soldi. Avstro Vengriyani Yaqin Sharq Bolqonlar bilan saavdo aloqalari qisqardi. Serbiya, Bosniya va Gersegovinani avtonomiyasini talab qila boshladi.

Boj urushining eng qizigan paytida, 1908 yil 6 oktyabrda Avstriya-Vengriya Berlin kongressining qarorlarini buzib, Bosniya bilan Gersegovinaning imperiyaga qo'shib olinganligini e'lon qiladi. Bu anneksiya qilish yo'li bilan janubiy slavyan xalqlarining milliy ozodlik harakatiga katta zarya berildi. Serbiya Chernogoriya va boshqa janubiy slavyan erlaridagi xalq ommasi Avstriya-Vengriya imperialistlarining xatti-harakatini qattiq qoralab chiqdilar. Serbiya va Chernogoriya ochiqdan-ochiq urushga, tayyorlandi. Ammo ulug' davlatlarning urushga tayyor emasligi o'sha vaqtda jahon urushining boshlanishiga xalaqit berdi. Germaniyaning maslahatiga ko'ra Turkiya o'zining Bosniya va Gersegovinaga bo'lgan huquqlarini rasmiy ravishda Avstriya-Vengriyaga berdi. Antanta davlatlarining siquvi ostida Serbiya 1909 yil martida, Bosniya bilan Gersegovinaning anneksiya qilinishi Serbiyaning huquqlariga daxl qilmaydi, deb anneksiyani tan olishga majbur bo'ldi.

Bu murakkab davrda Serbiya bilan Chernogoriya qaram mamlakatlarga xos bo'lgan bilan iqtisodii rivojlanib bordi. Serbiya korolligi va Chernogoriya knyazligining rivojlanish sur'atlaridagi ba'zi bir farq-larga qaramasdan, sanoat jihatidan ular kam taraqqiy etgan mamlakat bo'lib qola berdilar va ancha taraqqiy qil-gan imperialistik davlatlarning agrar-xom ashyo quyru-g'yga tez aylana bordilar. Har ikkala mamlakatning chet el moliya kapitaliga iqtisodiy va siyosiy jihatdan tobora ko'proq qaram bo'lib borishi urushdan oldingi imperializm davrida bu mamlakatlar rivojlanishining eng xarakterli xususyyati bo'ldi.

1903 yilgi davlat o'zgarishidan keyin Serbiya sanoati ancha tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Serbiyaning Avstriya-Vengriya bilan boj urushidagi muvaffaqiyatlari bunga ko'p jihatdan yordam berdi. XX asrning dastlabki o'nyilligida sanoat korxonalarining soni 3 martadan ortiq-roq o'sib 450 taga etdi. Xuddi shu davrda ishchilar soni 5 marta ortdi. Konlar soni 4 marta oshdi, ya'ni 13 tadan 52 taga etdi.

Biroq sanoat asosan chet el kapitalining zo'r berib ki-rib kelishi hisobiga rivojlanib borardi. Faqat to'rt yil mobaynidagina, ya'ni 1905 yildan 1909 yilgacha mamlakat chet davlatlardan 320 million frank miqdorida qarz oldi. Boj urushi munosabati bilan Fransiya-Belgiya kapitali mamlakat ekonomikasining eng muhim tarmoqlarini o'z ta'siriga bo'ysundira oldi. 1910 yili Fransiya-Belgiya banki tashkil etildi, bu bank 12 million dinar kapitalga ega edi. 1911 yilga kelib Serbiyaning davlat qarzi 735 million dinarga etdi. Shunday qilib, Serbiya Avstriya-Vengriyaga qaram-likdan qutula olmasdanoq, Antanta imperialistlarining asoratiga tushib qoldi.

Serbiya sanoat rivojlanishida ba'zi bir yutuqlarga erishganligiga qaramasdan, qoloq agrar mamlakat bo'lib qola berdi. Uning aholisining 72 %i qishloq xo'jaligida band edi. Serbiya qishlog'i XIX asrdagiga qaraganda yanada tezroq sur'atlar bilan xonavayron bo'la bordi. XX asr boshlarida mamlakatda 35 ming ersiz dehqon bor edi. 96 ming dehqon xo'jaligi 2 ga dan kamroq er uchastkalariga ega edi. Muhtojlik tufayli bir qancha aholi o'z vatanidan ketishga majbur

bo'lardi. Har yili 30 mingdan ortiq dehqon boshqa mamlakatlarda tirikchilik uchun zarur bo'lgan narsalarni qidirib topish umidida chegaradan o'tardi. Ularning ko'pchiligi mamlakatni batamom tashlab chiqib ketdi.

Serbiya mehnatkashlar ommasining ahvoli juda ham og'ir edi. Soliqlar fojiali suratda tez oshib borardi. 1910 yil-gacha ishchilarga oid qonunlar yo'q edi. Qorxonalarning ko'pchiligida ish kuni 12-14 soat davom etardi.

XIX asr oxirlarida Chernogoriyada paydo bo'la boshlagan sanoat korxonalari italyan va avstriyalik bankirlar ham-da korxona egalarining kontroli ostiga tushib qoldi. 1903 yili italyan «Anonim jamiyati», Chernogoriyada tamaki ishlab chiqarish va sotishni, shuningdek temir yo'llar qurish va paroxodchilikni tashkil etishni monopoliya qilib olishi bilan birga, mamlakat ekonomikasining eng muhim pozitsiyalarini tezda egallab oldi. Italyan imperialistlari Chernogoriyaning tabiiy boyliklarini va arzon ish kuchlarini cheksiz ekspluatatsiya qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Avstriya kapitali o'rmon va yog'ochsozlik sanoatida, shu-ningdek savdoda ustunlikni egalladi. Chernogoriya eksportining 50%idan ortiqrog'i Avstriya-Vengriyaga chiqarilar edi. Chet el kapitalining zo'ravonligi vatan sanoatining va jg'ap qancha qishloq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qildi. 1903 yildan 1907 yilgacha tamaki plantatsiyalari taxminan 5 marta kamaydi. XX asr boshlarida vujudga kelgan barcha eng katta sanoat korxonalari, ya'ni Podgoritsdagi tamaki fabrikasi, eg'ochsozlik fabrikalari va konserva zavodlari Italiya va Avstriya kapitalining kontroli ostida edi. Chernogoriyaning 1906 yildagina o'z tangasini zarb qila boshlaganidek bir fakt ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishining past darajada bo'lganligini ko'rsatardi.

1- Bolqon urushi.

Birinchi Bolqon urushi. 1912 yilda Bolgariya bilan Serbiya Rossiiyaning, shuningdek Antantaga kirgan boshqa davlatlarning vositachiligi bilan o'zaro ittifoq bo'lish haqida shartnoma tuzdilar, holbuki bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar shu davrgacha ko'pincha dushmanlik ruhida bo'lib kelgan edi. Ko'p o'tmay Serbiya bilan Bolgariyaga Gretsiya bilan Chernogoriya qo'shilib Bolqon ittifoqini tashkil qildilar. Bularning hammasini Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash birlashtirgan edi, chunki hali ko'pgina slavyanlar va greklar bu imperiya zulmi ostida yashardi.

Bolqonda milliy masalani hal qilish uchun olib borilgan kurash Yevropa davlatlarining aralashuvi bilan yanada murakkablashgan edi. Usmoniylar imperiyasini o'z mustamlakasiga aylantirish umidida bo'lgan Germaniya va uning ittifoqchisi Avstriya-Vengriya bolqon xalqlarining ozod bo'lishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ldilar. Rossiya Bolqon davlatlarini qo'llab-quvvatladi, lekin o'zining imperialistik manfaatlari uchun Avstriya-Vengriyaga va Turkiyaga qarshi kurashda bu davlatlardan foydalanishni ko'zda tutdi. Bolqon ittifoqi, agar Yevropa urushi boshlanib ketgudek bo'lsa, Antantaga bir daraja ko'maklashishi lozim edi.

Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi urushni 1912 yil oktyabr oyida boshladilar. Rossiya bularning urush boshlaganliklarini ma'qullamadi, chunki Rossiyaga Bolqon bloki Turkiyaga qarshi urush uchun emas, balki Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi kurashish uchun zarur edi. Lekin Rossiya o'zini katta Yevropa urushiga tayyor emas, deb hisoblardi.

Turkiya tez fursatda tor-mor qilindi. Bolgar qo'shinlari Konstantinopol tomon yo'l oldilar, grek qo'shinlari Salonikini ishg'ol qildilar, serblar esa Makedoniyaning katta qismini, Shimoliy Albaniyani va Novi Pazar sanjoqini bosib oldilar.

1912 yil noyabrda Turkiya sulh tuzishni so'radi. Bo'lajak sulh shartlari haqida muzokaralar boshlanib ketdi.

Muzokaralar uzoq davom etdi va qiyinchiliklarga duch keldi, bir necha bor kelishmovchiliklar chiqib, murakkablashdi va natijada Bolqonda yangi urush, yoki hatto Yevropa urushi boshlanib ketish xavfi tug'ildi. Serbiya dengizga chiqadigan yo'lga ega bo'lish uchun Shimoliy Albaniyani talab qildi. Biroq, u Avstriya-Vengriyaning qattiq qarshiligiga duch keldi. Avstriya-Vengriya Serbiyadan o'z da'vosidan voz kechishni talab qildi. Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga qarshi urushish bilan tahdid soldi va hatto o'z armiyasini qisman safarbar qildi. Rossiya hukumati urushga tayyorgarligi bo'lmaganligi uchun, Bosniya krizisi kunlaridagidek, Avstriya-Vengriya bilan bo'lgan janjalda Serbiyani quvvatlagan bo'lsa ham urush chiqarmaslikka harakat qildi.

Serbiya yana yon berdi. Serbiyaning dengizga chiqish yo'lini qo'lga olmoqchi bo'lib, kelgusi 1913 yil kuzida qilgan yana bir urinishi bir tomondan, Avstriya-Vengriya va Germaniya, ikkinchi tomondan, Serbiya va uni quvvatlagan Rossiya o'rtasida yanada keskinroq janjal chiqishiga olib keldi. Germaniya qo'llab-quvvatlagan Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga yana ultimatum yuborib, urush qilish bilan tahdid solgandan so'ng, Rossiya bilan Serbiya diplomatik jihatdan uchinchi marta chekindilar.

Bundan tashqari, Turkiyaning qarshilik ko'rsatishi orqasida ham Bolqonda tinchlik o'rnatish juda mushkul ish bo'ldi. Urushda g'olib chiqqan Bolqon davlatlari Turkiyaning Yevropadagi hududini Konstantinopol bilan va bu shaharga hamda bo'gozlarning ikki qirg'og'iga tutashgan, nisbatan tor yo'l bilan cheklab qo'ymoqchi bo'ldilar. Turkiya hukumati bu shartlarni rad qildi. 1913 yil yanvarida harbiy harakatlar yana boshlanib ketdi, lekin turk qo'shinlari yangidan-yangi mag'lubiyatlarga uchrayverdilar. Turkiya yana sulh tuzishni so'radi.

Bolqon davlatlarining Turkiya ustidan qozongan g'alabalari natijalariga baho berib, shunday deb aytishimiz mumkin, Bolqonda respublikalar ittifoqi tuzilmay, monarxiyalar ittifoqi tuzilganiga qaramay, bu ittifoqning revolyusiya tufayli emas, balki urush tufayli tuzilganiga qaramay, shunga qaramay, butun Sharqiy Yevropada o'rta asrchilik qoldiqlarini yemirib tashlash yo'lida ilgariga qarab buyuk qadam tashlandi.

2- Bolqon urushi.

Ikkinchi Bolqon urushi. Serbiya hukumati Albaniyani ololmagandan so'ng, buning evaziga Makedoniyani bo'lishda o'zining hissasini ko'paytirishga Bolgariya hukumatining rozilik berishini talab qildi. Bu masalada Serbiyani Gretsiya quvvatladi. Serbiya bilan Gretsiya Bolgariyaga qarshi ittifoq tuzdilar. Buyuk imperialistik davlatlarning Bolqon ishlariga tinmay aralashishlari natijasida ahvol yanada murakkablashdi. Germaniya bilan Avstriya-Vengriya rus diplomatiyasi tomonidan ularga qarshi tuzilgan Bolqon ittifoqini barbod qilishga intilib, Bolgariya hukumatini o'zining sobiq ittifoqchilari Serbiya bilan Gretsiyaga hujum qilishga rag'batlantirdilar. 1913 yil 29 iyunda bolgar qo'shinlari serb armiyasiga qarshi harbiy harakat boshladilar. Ikkinchi Bolqon urushi shu tariqa boshlanib ketdi.

Serbiyaga Gretsiyadan tashqari Ruminiya ham qo'shildi. Ruminiya hukumati Bolgariyaning kuchayib ketishidan qo'rqardi, chunki bolgar armiyasi Turkiya bilan olib borilgan urush Paytida eng yaxshi harbiy kuch sifatida o'zini ko'rsatgan edi. Bolgariyaga qarshi koalitsiyaga yaqindagina tor-mor qilingan Turkiya ham qo'shildi. U bundan oldingi urushda yo'qotgan yerlarining ayrim qismini Bolgariya hisobiga qaytarib olish niyatida edi.

Bolgariya mag'lubiyatga uchradi. 1913 yil 10 avgustda Buxarestda sulh shartnomasi imzolandi. Bolgariya Ruminiyaga Dobrudjani, Serbiyaga Makedoniyaning kattagina qismini berishga, Turkiyaga Adrianopolni qaytarib berishga majbur bo'ldi. Gretsiya Bolqon urushlari

natijasida Egey dengizidagi orollarining deyarli hammasini, Janubiy Makedoniyani, Saloniki va Epirni o'z qo'liga kiritdi.

Bolqon davlatlari Turkiyaning Bolqondagi hokimiyatiga butunlay chek qo'yishga qaror qildilar. Shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya va Gretsiya o'zaro ittifoq tuzdilar. Bu ittifoq tarixga «Bolqon ittifoqi» nomi bilan kirdi va Rossiya tomonidan qo'llab-quvvatlandi. «Bolqon ittifoqi» 1912- yilning 17- oktabrida Turkiyaga urush e'lon qildi. Bu urushda Turkiya mag'lubiyatga uchradi. 1913- yilning 30- may kuni Londonda Bolqon ittifoqi bilan Turkiya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Turkiya Yevropada Konstantinopol shahri va Qora dengiz bo'g'ozini qirg'oqlaridan boshqa barcha hududlaridan ajradi.

Tez orada 2-Bolqon urushi yuz berdi. Bu urushga Bolqon davlatlari o'rtasida Turkiya mustamlakachiligidan ozod bo'lgan hududlarni taqsimlashda kelib chiqqan nizo sabab bo'ldi, Bolgariya Serbiyaning kuchayib ketishini aslo hohlamadi.

Germaniya va Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya 1913-yilning 29-iyunida Serbiya va Gretsiyaga qarshi urush harakatlarini boshladi. Chernogoriya va Ruminiya Serbiya va Gretsiyaga yordam berdilar. Turkiya ham Bolgariyaga qarshi urushda ishtirok etdi.

Bolqon - Janubi-Sharqiy Yevropadagi yarim oral. Unda bugungi Albaniya, Bolgariya, Gretsiya, Bosniya va Gersegovina, Serbiya, Chernogoriya va Turkiyaning bir qismi hamda Italiyaning shimoli-sharqidagi kichik bir qismi joylashgan.

Bolqonda Rossiyaning Germaniya-Avstriya-Vengriya ittifoqi bilan munosabatlari keskinlashdi. Bolqon Yevropaning portlovchi modda solingan «bochkasi»ga aylandi.

Birinchi serb qo'zg'oloni (1804–1813) natijasida Serb knyazligi (bekligi) tashkil topdi. 1813 yil qo'zg'olon bostirildi. Ikkinchi serb qo'zg'oloni 1815 yil boshlandi. O'n besh yildan so'ng sulton Serbiya hukumatini tan oldi. 1878 yil 13 iyulda Berlin bitimiga binoan, Serbiya mustaqillikni qo'lga kiritdi, 1882 yili esa qirollik e'lon qilindi.

Bolqon urushlari asosan bolqonlik slavyanlarning turklar zulmidan ozod bo'lishi bilan tugallandi. Bu esa Avstriya-Vengriyadagi ezilgan xalqlarni, shu jumladan, Serbiyadan yordam olib turgan janubiy slavyanlarni ozod qilishni kun tartibiga qo'ydi. Avstriya-Vengriya asorat ostida tutib turgan janubiy slavyanlarni ozod qilishga qaratilgan harakatlarning oldini olish niyatida kuchayib qolgan serb davlatini urush vositasi bilan bo'g'ib tashlashga tayyor edi.

Urush xavfining kuchayishi. 1911 yildan boshlab har yili urush havfi tug'ilib turdi desa bo'ladi, bir kuchayishi xalqaro krizis tugamasdanoq, ikkinchisi boshlanib turardi.

Imperialistik ziddiyatlarning rivojlanishi bilan bir qatorda imperialistik davlatlardagi ichki ahvolning keskinlashuvi va mustamlakalardagi milliy ozodlik harakatining kuchayishi urush xavfining yanada o'sib borishiga olib keldi. Imperialistik davlatlarning hukmron sinflari, ko'pincha, mamlakatlardan tashqaridagi «yutuqlar» orqali ichki qiyinchiliklardan qutulish yo'lini izlab, militarizmni kuchaytirar va harbiylarni revolyusion harakatga qarshi kurash tayanchi deb hisoblardilar.

«Ittihodi Muhammadi» partiyasining tarafdori bo'lgan harbiylar 13- aprelda aksilinqilobiy isyon ko'tardilar. Isyonchilar parlamentni bekor qilish, shariat va sulton hokimiyatining tiklanishini talab qildilar. Abdulhamid II ga aynan shu kerak edi. Shuning uchun ham u isyonchilar talabini tezda bajardi.

«Yosh turklar» arboblardan bir qismi Saloniki va Adrianopolga Qochib ketdilar. Saloniki va Adrianopoldagi harbiy qismlar yosh turklar larafida edi. Yosh turklar o'zlariga sodiq armiya qismlari bilan 26-aprelda isyonchilar hukumatini ag'darishdi. Sulton Abdulhamid taxtdan

ag'darildi. Taxtga uning ukasi, mamlakat ichki siyosiy hayotidan yiroq Mahmud V Rishod (1844-1918) o'tqizildi. Parlament qayta tiklandi.

Yosh turklar inqilobi buyuk davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Ilar Turkiyadagi ichki siyosiy beqarorlikdan foydalanib yanada ko'proq o'ljaga ega bo'lib olishga harakat qilganlar.

1911- yilda Italiya Liviyani bosib olgach, inglizlarga xayrixoh «Hurriyat va birdamlik partiyasi» «Yosh turklar» hukumatini noqobillikda aybladi. Ular 1912- yil 5- avgustda mamlakatda davlat to'ntarishi o'tkazishdi.

Tez orada, Turkiyaning tashqi ahvoli yanada yomonlashdi. 1 va 2- Bolqon uiushlarida Turkiya Bolqondagi ta'siridan deyarli to'la ajraldi. Bu hodisa «Hurriyat va birdamlik» hukumatini og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Shunday sharoitda, «Yosh turklar» rahbarlaridan bin Anvarbey boshchiligida 1913- yilning yanvarida isyon ko'tarildi. «Hurriyat va birdamlik» hukumati ag'darildi. Hokimiyat yana «Yosh turklar» qo'liga o'tdi.

Hokimiyat 3 kishidan iborat «Uchlik» deb atalgan guruh (Anvar, Tal'at va Jamol) qo'liga o'tdi. Uchlikka Anvar poshsho rahbarlik qildi. «Uchlik» Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi.

«Uchlik»ning Germaniya bilan yaqinlashishi Germaniyaning Turkiya imperiyasi hududlariga da'vo qilmayotgani bilan izohlandi.

XULOSA

Prezidentimiz ta'kidlaganidek “biz mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajribamizga tayanib, hayotimizni yaxshilash va isloh qilish yo'lida davlat va jamiyat qurilishining eng asosiy maqsad va vazifalarini aniqlab olmog'imiz zarur”.

Jahon tarixida davlatlar taraqqiyotidagi yutuq va tajribalardan habardor bo'lish hamda uni hayotda qo'llash barkamol avlodning tarbiyasiga o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir me'ros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga el yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik xolatlariga malham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatimizni qaror topdirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishimizni o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi me'zon deb qarash va shu asosida ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini bugun ham e'tiborimiz markazida turganini takidlash lozim.

Bir so'z bilan aytganda, tarixiy voqe'likka mana shunday qarash, jamu jam bo'lib yashash tuyg'usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog'i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak bu milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadigan bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir hususiyatki uni sezmaslik, anglamaslik, ko'rmaslik umuman mumkin emas.

G'arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko'ra individualizm, shaxsiy manfaat tamonlari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan obyektiv ijtimoiy tarixiy omillar tufayli shakllangan voqealik bo'lib uni ham inkor etib bo'lmaydi.

O'zbekiston istiqbolga erishgandan so'ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o'zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o'z aksini topdi.

Eng asosiy ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Oqibatda sovet tarixshunosligi nuqtai nazaridan o'rganilgan mavzular qaytadan ilmiy tadqiqot sifatida o'rganila boshlandi.

Bolqon urushlari - Bolqon yarim orolida 1912-1913 yillarda bo'lib o'tgan ikki urush. Birinchi Bolqon urushi - 1912 yil 9 oktabrdan 1913 yil 30 maygacha bolgan edi. Bolqon ittifoqi tarkibidagi Bolgariya, Serbiya, Gretsiya, Chernogoriya bilan Turkiya o'rtasidagi urush. London sulh shartnomasi (1913 yil 13 may) ga ko'ra, mag'lub Turkiya Istanbul va Sharqiy Frakiyaning bir qismidan boshqa Bolqondagi barcha mulklaridan mahrum bo'lgan.

Ikkinchi Bolqon urushi (1913 yil 29 iyun — 10 avgust) — Bolgariyaning Serbiya, Chernogoriya, Gretsiya va ularga qo'shilgan Ruminiya va Turkiyaga qarshi urushi. Urush Bolgariyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Buharest sulh shartnomasiga (1913 yil avgust) ko'ra, Bolgariya Ruminiyaga Janubiy Dobruja, Gretsiyaga Makedoniyaning janubiy qismini va G'arbiy Frakiyaning bir qismini, Serbiyaga Makedoniyaning shimoliy qismining deyarli hammasini berishga, Turkiyaga Adrianopol (Adirna) ni qaytarishga majbur bo'ldi. Bolqon urushlari xalqaro ziddiyatlarning keskinlashuviga, 1914—18 y.lardagi 1-jahon urushining tezlashuviga yo'l ochib berdi.

Bolqon urushi (1912-1913) natijasida Kosovo, Makedoniyaning bir qismi va Sanjoqning kattagina qismi Serbiya hududiga qo'shildi. Birinchi jahon urushida Serbiya Antanta tomonida turib urushga kirdi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ana shu janglarda mamlakat aholisining uchdan biri qirilib ketgan. Urushdan so'ng Serbiya o'zagida serblar, xorvatlar va slovenlarning Qirolligi tashkil etildi. Bu davlat 1929 yildan Yugoslaviya Qirolligi nomini oldi.

1912 yilda Birinchi Bolqon urushi Bolgariya bilan Serbiya chor Rossiyasining, shuningdek Antantaga kirgan boshqa davlatlarning vositachiligi bi-lan o'zaro ittifoq bo'lish haqida shartpoma tuzdilar, holbu-ki bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar shu davrgacha ko'pincha dushmanlik ruhida bo'lib kelgan edi. Ko'p o'tmay Serbiya bilan Bolgariyaga Gretsiya bilan Chernogoriya qo'shilib, Bolqon ittifoqini tashkil qildilar. Bularning hammasiki Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash birlashtirgan edi, chunki hali ko'pgina slavyanlar va greklar bu imperiya zulmi ostida yashardi.

Bolqonda milliy masalani hal qilish uchun olib borilgan kurash Yevropa davlatlarining aralashuvi bilan yanada murakkablashgan edi. Usmoniylar imperiyasini o'z mustamlakasiga aylantirish umidida bo'lgan Germaniya va uning ittifoqchisi Avstriya-Vengriya bolqon xalqlarining ozod bo'lishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ldilar. Rossiya Bolqon davlatlarini qo'llab-quvvatladi, lekin o'zining imperialistik manfaatlari uchun Avstriya-Vengriyaga va Turkiyaga qarshi kurashda bu davlatlardan foydalanishni ko'zda tutdi. Bolqon ittifoqi, agar Yevropa urushi boshlanib ketgudek bo'lsa, Antantaga bir daraja ko'maklashishi lozim edi.

Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi urushni 1912 yil oktyabr oyida boshladilar. Rossiya bularning urush boshlaganliklarini ma'qullamadi, chunki Rossiyaga Bolqon bloki Turkiyaga qarshi urush uchun emas, balki Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi kurashish uchun zarur eyai. Lekin Rossiya o'zini katta Yevropa urushiga tayyor emas, deb hisoblardi.

Turkiya tez fursatda tor-mor qilindi. Bolgar qo'shinlari Konstantinopol tomon yo'l oldilar, grek qo'shinlari Salonikini ishg'ol qildilar, serblar esa Makedoniyaning katta qismini, Shimoliy Albaniyani va Novipazar sanjoqini bosib oldilar.

1912 yil noyabrda Turkiya sulh tuzishni so'radi. Bo'lajak sulh shartlari haqida muzokaralar boshlanib ketdi.

Muzokaralar uzoq davom etdi va qiyinchiliklarga duch keldi, bir necha bor kelishmovchiliklar chiqib, murakkablashdi va natijada Bolqonda yangi urush, yoki hatto Yevropa urushi boshlanib ketish xavfi tug'ildi. Serbiya dengizga chiqadigan yo'lga ega bo'lish uchun Shimoliy Albaniyani talab qildi. Biroq u Avstriya-Vengriyaning qattiq qarshiligiga duch keldi - Avstriya-Vengriya Serbiyadan o'z da'vosidan voz kechishni talab qildi. Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga qarshi urushi bilan tahdid soldi va hatto o'z armiyasini qisman safarbar qildi. Chor hukumati urushga tayyorgarligi bo'lmaganligi uchun, Bosniya krizisa kunlaridagidek, Avstriya-Vengriya bilan bulgan janjalda Serbiyani quvvatlagan bo'lsa ham urush chiqarmaslikka harakat qildi.

Serbiya yana yon berdi. Serbiyaning dengizga chiqish yo'lini qo'lga olmoqchi bo'lib, kelgusi 1913 yil kuzida qilgan yana bir urinishi bir tomondan, Avstriya-Vengriya va Germaniya, ikkinchi tomondan, Serbiya va uni quvvatlagan Rossiya o'rtasida yanada keskinroq janjal chiqishiga olib keldi. Germaniya qo'llab-quvvatlagan Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga yana ultimatum yuborib, urush qilish bilan tahdid solgandan so'ng, Rossiya bilan Serbiya diplomatik jihatdan uchinchi marta chekindilar.

Bundan tashqari Turkiyaning qarshilik ko'rsatishi orqasida ham Bolqonda tinchlik o'rnatish juda mushkul ish bo'ldi. Urushda g'olib chiqqan Bolqon davlatlari Turkiyaning Yevropadagi territoriyasini Konstantinopol bilan va bu shaharga hamda bo'g'ozlarning ikki qirg'og'iga tutashgan, nisbatan tor polosa bilan cheklab qo'ymoqchi bo'ldilar. Turkiya hukumati shu shartlarni rad qildi. 1913 yil yanvarida harbin harakatlar yana boshlanib ketdi, lekin turk qo'shinlari yangidan-yangi mag'lubiyatlarga uchrayverdilar. Turkiya yana sulh tuzishni so'radi.

V.I.Lenin Bolqon davlatlarining Turkiya ustidan qozongan g'alabalari natijalariga baho berib, bunday deb yozgan edi: «Bolqonda respublikalar ittifoqi tuzilmay. monarxiyalar ittifoqi tuzilganiga qaramay, bu ittifoqning revolyusiya tufayli emas, balki urush tufayli tuzilganiga qaramay, - shunga qaramay, butun Sharqiy Yevropada o'rta asrchilik qoldiqlarini emirib tashlash yo'lida ilgariga qarab buyuk qadam tashlandi».

Bolqon urushida Serbiya o'zining hissasini ko'paytirishga Bolgariya hukumatining rozilik berishini talab qildi. Bu masalada Serbiyani Gretsiya quvvatladi. Serbiya bilan Gretsiya Bolgariyaga qarshi ittifok tuzdilar. Buyuk imperialistik davlatlarning Bolqon ishlariga tinmay aralashishlari natijasida ahvol yanada murakkablashdi. Germaniya bilan Avstriya-Vengriya sus diplomatiyasi tomonidan ularga qarshi tuzilgan Bolqon ittifoqini barbod qilishga intilib, Bolgariya hukumatini o'zining sobiq ittifoqchilari - Serbiya bilan Gretsiyaga hujum qilishga rag'batlantirdilar. 1913 yil 29 iyunda bolgar qo'shinlari serb armiyasiga qarshi harbiy harakat boshladilar. Ikkinchi Bolqon urushi shu tarika boshlanib ketdi.

Serbiyaga Gretsiyadan tashqari Ruminiya ham qo'shildi. Ruminiya hukumati Bolgariyaning kuchayib ketishidan qo'rqardi, chunki bolgar armiyasi Turkiya bilan olib borilgan urush paytida eng yaxshi harbiy kuch sifatida o'zini ko'rsatgan edi. Bolgariyaga qarshi koalitsiyaga yaqindagina tor-mor qilingan Turkiya ham qo'shildi. U bundan oldingi urushda yo'qotgan yerlarining ayrim qismini Bolgariya hisobiga qaytarib olish niyatida edi.

Bolgariya mag'lubiyatga uchradi. 1913 yil 10 avgustda Buxarestda sulh shartnomasi imzolandi. Bolgariya Ruminiyaga Dobrudjani, Serbiyaga Makedoniyaning kattagina qismini berishga, Turkiyaga Adrianopolni qaytarib berishga majbur bo'ldi. Gretsiya Bolqon urushlari natijasida Egey dengizidagi orollarining deyarli hammasini, Janubiy Makedoniyani, Saloniki va Epirni o'z qo'lga kiritdi. Bolqon urushining oqibatlaridan biri Albaniyaning tez fursatda Turkiya istibdodidan ozod qilinishi bo'ldi, Albaniyada ta'sir doirasi uchun ikki «ittifoqchi» davlat - Italiya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasida kurash qizib ketdi;

Bolqon urushlari asosan bolqonlik slavyanlarning turklar zulmidan ozod bo'lishi bilan tugallandi. Bu esa Avstriya-Vengriyadagi ezilgan xalqlarni, shu jumladan, Serbiyadan yordam olib turgan janubiy slavyanlarni ozod qilishni kun u tartibiga qo'ydi. Avstriya-Vengriya asorat ostida tutib turgan janubiy slavyanlarni ozod qilishga qaratilgan harakatlarning oldini olish niyatida kuchayib qolgan serb davlatini urush vositasi bilan bo'g'ib tashlashga tayyor edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов. И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: “Шарқ”, 1998.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011.
6. Ўзбекистон Республикаси ФА қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасининг қарори // Халқ сўзи.1998. 28 июл.
7. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. Под.ред. А.В.Адо. – М., 1986.
8. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. Под.ред. Э.Е.Юровский и И.М.Кривогуза. – М., 1998.
9. Новая история. Второй период. М., 1984.
10. Новая история. Второй период. Под ред. Э.Е.Юровский и И.М.Кривогуза. – М., 1984.
11. Тейлор А., Дж.Р. Борба за господство в Европе. 1848-1918. М., 1958.
12. Холлиев А., Тухтабаев А. История международных отношений и дипломатии (учебно-методическое пособие). Ташкент. 2002 г.
13. Янги тарих (1870-1918). Т.3. И.С.Галкин ва бош.таҳрири остида. - Т.: 1964.
14. Янги тарих . Б.Ф.Поршнева таҳрири остида – Т., 1967, т.2.

Qo'shimcha adabiyotlar

15. Астафьев И.И. Русско-германские дипломатические отношения 1905-1911 гг. - М.,1969.
16. Ахмад Мухаммад Турсун. Зукколар китоби. - Т.: Мухаррир, 2010
17. Бекмухамедов Х.Ю. Тарих терминлари изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи. 1978.
18. Бовыкин В.И. Из истории возникновения первой мировой войны. Отношения России и Франции в 1912-1914гг. - М.: 1961.
19. Галкин И. С. Европейские державы и кризисный вопрос в 1908-1912 годах. М.: 1956.
20. Жаҳон тарихи (Ғарб мамлакатлари 1640-1918йй). - Т.: 2002.
21. Жогов П.В. Дипломатия Германии и Австро-Венгрии и первая Балканская война 1912-1913гг. - М.: 1960.
22. Зорин В.А. Основы дипломатической службы. ИМО. - М.: 1977.
23. Игнатьев А.В. Русско-английские отношения в конце XIX века. - М.: 1960.
24. История дипломатии. Т.2. - М.: 1945.
25. История дипломатии.т.2. ОГИЗ. - М.: 1941.

26. История Россия. XIX век. М. , АСТ, 2000.
27. Новая и новейшая история. - М.: Наука. 1993.
28. Орлов А. Георгиев В, Георгиева Н, Сиховина Т. История России. М., 2001.
29. Сборник договоров России с другими государствами 1856-1917. - М.: 1952.

Internet manzillari

- [http: // www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
- [http: // www.referat.uz](http://www.referat.uz)
- [http: // www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
- [http: // www.google.uz](http://www.google.uz)
- [http: // www.bestreferat.ru](http://www.bestreferat.ru)
- [http: // www.umail.uz](http://www.umail.uz)
- [http: // www.grid, rug.nl /ahc/](http://www.grid.rug.nl/ahc/)
- [http: // www.Librorary. Byu. edu/-rdh/eurodocs/](http://www.Librorary.Byu.edu/-rdh/eurodocs/)
- [http: // www.history.hanover,edu/texts.htm](http://www.history.hanover.edu/texts.htm)
- [http: // www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
- [http: // www.english. hss. cmu. edu/history](http://www.english.hss.cmu.edu/history)
- [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
- [http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html)
- [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/)
- [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
- [http: // www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
- [http: // www.yole,edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

